

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**KORPORATIV BOSHQARUV FAKULTETI
«BANK ISHI» KAFEDRASI**

Bitiruv malakaviy ish
himoyaga ruxsat etiladi
“Bank ishi” kafedrası mudiri
I.f.n., dots. F.N. Nasriddinov

«_____» _____ 2018 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish orqali eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash masalalari («Asaka» aksiyadorlik tijorat banki misolida)

Bajardi: “Bank ishi” ta’lim yo‘nalishi, 4-kurs, BD-52 guruhi talabasi Allamurodov Xurshid Baxtiyorovich

Ilmiy rahbar: “Bank ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi M.N.Nazarova

Bitiruv malakaviy ish dastlabki himoyadan o‘tganligi 2018 yil
___ maydagi ___- sonli bayonnoma bilan rasmiylashtirilgan.

Toshkent - 2018

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KIRISH | 3 |
| I-BOB TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O‘ZARO MUNOSABATI ASOSLARI | 7 |
| 1.1. Tijorat banklari imtiyozli asoslarda kreditlash amaliyotining mohiyati va iqtisodiy asoslari. | 7 |
| 1.2. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari. | 17 |
| II-BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI IMTIYOZLI KREDITLASH AMALIYOTINING HOLATI VA TAHLILI | 26 |
| 2.1. O‘zbekiston tijorat banklari imtiyozli kreditlash amaliyotining zamonaviy holati va tahlili. | 26 |
| 2.2. ATB “Asaka” bankning tashqi savdoni kreditlash amaliyotining tahlili. | 38 |
| III-BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI | 45 |
| 3.1. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolar. . . | 45 |
| 3.2. Banklarning kreditlash amaliyotining takomillashtirish masalalari. . . | 49 |
| XULOSA VA TAKLIFLAR | 56 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 60 |

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, mulkchilik shakllari rivojlanishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni faollashtirish zarurati, bank ishining erkinlashtirilishi kredit xizmatini ko‘rsatish va iqtisodiyotni moliyalashtirishning yangi xizmatlarini amaliyotga kiritilishini talab qildi.

Respublika bank tizimi oxirgi yillarda sezilarli darajada rivojlandi, moliyaviy salohiyati bir necha barobarga o‘tdi, mijozlarga bank xizmatlari xususan kredit xizmatlari ko‘rsatish sifati davr talabi darajasiga ko‘tarildi, bundan tashqari banklar o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatishning bir qator zamonaviy va samarali turlarini joriy qilishdi, jumladan, kredit xizmatlarining faktoring va skoring operatsiyalari, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar onlayn kartalar, klik xizmatlari, shuningdek, eng zamonaviy bank xizmatlaridan internet-bank, mobil-bank kabi operatsiyalarni misol sifatida keltirish mumkin.

Tijorat banklari iqtisodiyotga kreditlar ajratishni yildan-yilga kengaytirib borayotganligi va bu boradagi ishlarni yanada oshirish yuzasidan Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasida alohida e‘tibor qaratib shunday deyiladi: “ banklarining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlab, istiqbolli investisiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish¹” asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Hozirgi paytda banklarning kredit portfeli salmog‘i va tarkibida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, banklarimiz tomonidan iqtisodiyotni real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Shu bilan birga mamlakatimiz tijorat banklari kredit amaliyotlarida ba’zi muammolar mavjud bo‘lib ular:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. PF-4947-son 2017 yil 7 fevral.

Birinchi dan, hozirda tijorat banklarining kredit xizmatlariga bo'lgan jami taklifining ushbu xizmatning aholi va tadbirkorlar tomonidan berilgan jami talabini to'liq qondira olmayotganligi.

Ikkinchi dan, tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga kredit xizmatlarini xususan, imtiyozli mikromoliyaviy xizmatlari ko'rsatishda faol tijorat banklariga imtiyozlar berish mexanizmi mavjud emasligi.

Uchinchi dan, muammoli kreditlar. Ushbu kreditlarni iloji boricha kamaytirish uchun avvalo kreditlarni skoring qilishni mamlakatimiz barcha banklarida (hozirda ba'zi banklar foydalanadi) joriy qilish, bunda faqatgina mijoz faktorini xisobga olmasdan inson omolini qo'shishimiz zarur. Bundan tashqari hozirda "garov reestri"ga faqatgina garovlarni registratsiya qilmasdan kafilliklarni ham qo'shish lozim. Fikrimizcha ushbu orqali muammoli kreditlarni kamaytirish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tijorat banklarining kredit operatsiyalarini o'rganishni, takomillashtirish xamda ushbu jarayonni tahlil qilishni lozimligini ko'rsatadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Kredit amaliyotlari, shu jumladan u bilan bog'lik muammolarni, banklar faoliyatida kredit amaliyotlarini tadqiq qilishga xorijlik olimlar P.Rouz, J.Sinki, X.Gryuning, A.Olshanniy, O.Lavrushin, S.Kabushkin, G.Panova, S.Ermakov, V.Usoskinlar² kabilarning ba'zi ilmiy ishlari yoki o'quv-uslubiy materiallari bag'ishlangan. Mazkur tadqiqotlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, ular faoliyatidagi mavjud muammolar, shu jumladan kredit amaliyotlari va ularning mohiyati, turlari bilan bog'lik ba'zi muammolarning nazariy asoslari yoritilgan.

² Роуз П.С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. со 2-го изд. – М.: Дело, 1997; Синки Дж. Управление финансами в коммерческих банках. — М.: Catallaxy, 1994; Грюнинг Х. Ван, Брайович Б.С. Анализ банковских рисков. Система оценки корпоративного управления и управления финансовым риском / Пер. с англ. – М.: «Весь мир», 2007; Ольшанный А.И. Банковское кредитование. – М., 1997; Банковские риски: Учебное пособие /Под. ред. О. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2008.; Кабушкин С.Н. Управление банковским кредитным риском: Учебное пособие. — М.: Новое знание, 2004; Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997; Ермаков С.Л. Работа коммерческого банка по кредитованию заемщиков.- М.: Компания «Алеа». 1995; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – М.: 2003.

Mahalliy iqtisodchilarimizdan O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida kredit amaliyotlarini samarali tashkil etish bilan bog‘liq masalalar Sh.Abdullayeva, S.Berjanov, O.Iminov, T.Malikov, S.Norqobilov, O.Namozov, O.Olimjanov, Z.Xolmaxmadov, A.Qodirov, T.Qoraliev, U.Tuxtaboyevlar, D.Saidov³tomonidan tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi bo‘lib tijorat banklari kreditlash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Qo‘yilgan maqsad quyidagi vazifalarni ilmiy yechimini asoslab berishni taqozo etadi:

- tijorat banklari kreditlash amaliyotining mohiyati va iqtisodiy asoslarini tadqiq etish va nazariy takliflar ishlab chiqish;
- tijorat banklari kreditlash tizimining huquqiy asoslarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish;
- tijorat banklari kreditlash amaliyotining xususiyatlarini yoritib berish;
- aholi tadbirkorlik salohiyatini oshirishda tijorat banklari kreditlash amaliyoti tahlili;
- respublikamiz tijorat banklari kreditlash amaliyotining tahlili qilish;
- tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlili amalga oshirish;
- tijorat banklarining kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolarni ko‘rsatib berish;
- banklarning kreditlash amaliyotining takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

³ Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. - Toshkent: Moliya, 2002 yil, Кадіров А.К. Анализ финансово-хозяйственной деятельности банка. - Москва: Вазар-Ферро, 1995. Iminov O.K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish yo‘llari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati - Toshkent, 2002 yil, Tuxtaboyev U.A. Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati, - Toshkent, 2007 yil, D.A.Saidov. Tijorat banklarining kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari. Monografiya. – Toshkent. 2015 yil.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib mamlakatimiz tijorat banklari xususan, "Asaka" aksiyadorlik tijorat bankining kreditlash amaliyoti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib tijorat banklari tomonidan kreditlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari, xulosa va takliflari tijorat banklari kredit operatsiyalarini takomillashtirish borasidagi nazariy va amaliy bilimlar doirasini kengaytiradi. Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati undagi taklif va amaliy tavsiyalardan respublikamiz tijorat banklari amaliyotida kredit operatsiyalarini samarali tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Bank ishi", "Kreditlash operatsiyalari va siyosati", "Tijorat banklari resurslarini boshqarish", "Kredit tavakkalchiliklari va ularni boshqarish" kabi fanlarini o'qitishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan, umumiy hajmi 68 betdan iborat bo'lib, unda jami 10 ta rasm va 5 ta jadvallar mavjud.

Birinchi bobda tijorat banklari kreditlash amaliyoti va tashqi iqtisodiy faoliyatning o'zaro munosabati asoslari yoritilgan, ikkinchi bobda O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari imtiyozli kreditlash amaliyotining holati va tahlil qilingan, uchinchi bobda esa, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining takomillashtirish yo'nalishlari yoritib berilgan.

I-BOB. TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O‘ZARO MUNOSABATI ASOSLARI

1.1. Tijorat banklari imtiyozli asoslarda kreditlash amaliyotining mohiyati va iqtisodiy asoslari

Kredit qadimdan ma’lum bo’lib, u dastlab savdoda almashuv jarayonida paydo bo’lgan bo’lib, kredit avval tovarlarni kreditga sotilishi bilan bog’liq jarayonlarni o’zida ifoda etgan. Bunga sabab haridorni tovar sotib olishga hamisha ham naqd puli bo’lmaydi, naqd pul ma’lum muddatdan so’ng ega bo’lishi mumkin. Bu vaqt oralig’ida tovarning qiymati tushib ketishi, sifati pasayishi mumkin. Shu va boshqa holatlar tovarlarni kreditga sotishga olib kelgan. Kredit tovar ishlab chiqarishning va tovar muomalasining ajralmas qismi bo’lib hisoblanadi va uning rivojlanishi bilan bog’liq. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan pul shaklidagi kredit paydo bo’ldi. Keyinchalik kredit berish mustaqil faoliyatga aylanib, uning asosiy funksiyasi bo’lib pul egalari va unga vaqtincha muhtoj bo’lganlar o’rtasidagi vositachilikdir. Hozir bu faoliyat maxsus malaka va texnikaga ega bo’lgan maxsus ixtisoslashgan muassasalar-banklar tomonidan amalga oshirilmoqda. Kreditning imkoniyati va zarurligi shu bilan bog’liqlik korxonalar mahsulot sotishda, xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda, korxonalar va jismoniy shaxslar o’z pullarini banklarda saqlashi va boshqa hollarda vaqtinchalik bo’sh bo’lgan pul mablag’lari bo’lgani holda boshqa korxonalar va tashkilotlarda o’z faoliyatlarini uzluksizligini ta’minlash uchun tegishli pul mablag’iga ehtiyoj sezadi.

Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga va aholiga kreditlar berish tarixan tijorat banklari faoliyatining asosiy yo’nalishi hisoblanadi. Tijorat banklarining paydo bo’lish tarixiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarga ko’ra, banklar birinchi navbatda kredit operatsiyalarini bajarish zaruriyati tufayli yuzaga kelganligini guvohi

bo‘lamiz. Aksariyat mualliflarning qarashlariga ko‘ra, banklar tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda emas, balki keng ko‘lamdagi kredit operatsiyalarini amalga oshirish zaruriyati tufayli paydo bo‘lgan.

Dastlabki banklarning xodimlari shuni tushunib yetdilarki, harakatsiz yotgan yirik miqdordagi pul mablag‘larini vaqtinchalik foydalanishga berish orqali katta miqdorda daromad olish mumkin. Shu sababli, kreditni berishva uning qaytarilishini ta‘minlash masalasi yuzaga keldi. Dastlabki davrlarda kreditlar uchun garov sifatida kemalar, tovarlar, nodir metallar, uy-joylar va qullardan foydalanildi.

Tijorat banklarining yuzaga kelishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarda banklarning faoliyatida mijozlarga hisob-kitob xizmatini ko‘rsatish kredit operatsiyalaridan keyin yuzaga kelganligi o‘z isbotini topgan⁴.

Ma‘lumki, kredit to‘g‘risidagi nazariyalar, jumladan, kreditning qiymat nazariyasi, kapitallashuv nazariyasi o‘tgan asrning boshlarida yaratilgan. Shu sababli, mazkur nazariyalarda kreditdan foydalanishning hozirgi zamon sharoitidagi xususiyatlari inobatga olinmagan.

Holbuki, hozirda kreditdan foydalanish shart-sharoitlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar, bizning nazarimizda, birinchi navbatda, xalqaro bank amaliyotida keng qo‘llanilayotgan Bazel talablari bilan bog‘liq. Bunda kredit riskini boshqarishga nisbatan belgilangan talablarni kuchayishida, dunyoning ko‘plab davlatlarida kreditning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi salmog‘ining sezilarli darajada o‘sayotganligida, kreditlashning nisbatan yangi shakllaridan foydalanish ko‘lami kengayayotganligida va kredit ta‘minotiga nisbatan belgilangan talablarni kuchayishida namoyon bo‘lmoqda.

Kredit qiymatning harakati ekanligi hamda bu harakatni tovar va pul ko‘rinishidagi mablag‘larni qaytarib berishlik, muddatlilik, to‘lovlilik asosida berish natijasida yuzaga kelishi ko‘pgina yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

⁴ Бортник М.Ю. Денежное обращение и кредит капиталистических стран.- Москва:Финансы, 1967.

Sobiq ittifoq davrida kreditning iqtisodiy kategoriya ekanligi qator olimlar tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan. Kreditning iqtisodiy kategoriya ekanligi Yu.Shenger, M.Usoskin, M.Atlas, G.Shvars, V.Geraschenko, I.Levchuk, O.Lavrushin, N.Valenseva, I.Mamonova, V.Ribin, M.Yampolskiy va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ayrim mualliflarning kredit munosabatlariga bag'ishlangan ishlarida tahlil qilish jarayonida kredit termini, kreditlash jarayoni ko'rsatib o'tilgan. Ayni vaqtda, ushbu kategoriyaga berilgan ta'rifdan kredit va kreditlash faoliyati to'g'risidagi, kreditning makrodarajada faqat bir tomonlama emasligi isbotlangan. Kreditning funksiyalari, harakat qonunlari va oxir-oqibat uning iqtisodiy o'sishdagi o'rni haqida to'laqonli ma'lumot beruvchi nazariyalar shakllangan.

Aksariyat olimlarning, xususan, O.Lavrushin, I.Levchuk, V.Ribin, Yu.Shengerlarning⁵ fikricha, kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qiymatning ssuda kapitali shaklidagi harakatidir. Shunisi xarakterliki, iqtisodiy adabiyotlarda kredit tushunchasining o'zi bir-biridan farqlanuvchi ikki shaklda talqin etiladi. Birinchidan, kredit pul mablag'larini ma'lum muddatga qaytarib berishlik va foiz to'lashlilik shartlari asosida berishni anglatadi. Ikkinchidan, kredit so'zi tarjima qilinganda "ishonch" degan ma'noni anglatishini inobatga olsak, mijozning kredit to'loviga layoqatliligi kreditorning unga ishonish imkoniyati sifatida tushuniladi. Shu sababli, kredit banklar uchun nafaqat pul mablag'larini mijozga berishni, balki boshqa bir qator amaliyotlarni, jumladan, bank tomonidan mijoz majburiyatlari bo'yicha kafolatlar berishni ham anglatadi. Bunda banklar tomonidan ko'pchilik hollarda kreditni berish va mijozning majburiyatlarini kafolatlash o'rtasida mavjud bo'lgan aniq farqlar hisobga olinmaydi.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan Sh.Abdullayeva kreditga quyidagicha ta'rif

⁵Лаврушин О.И. Кредит как стоимостная категория социалистического воспроизводства. - Москва: Финансы и статистика, 1989. -173 с.; Левчук К.И.Ссудный фонд и кредит. - Москва: Финансы и статистика, 1988. -109 с.; Рыбин В.И. Кредит как экономическая категория социализма. - Москва: Мысль, 1978.-252 с.

beradi. Kredit – bu vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidir⁶.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan yana biri D.A.Saidovning fikricha kreditga eng maqbul ta’rif bu – mablag‘larni ma’lum muddatga, haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir⁷.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Kredit” tushunchasi to‘g‘risida yana to‘xtaladigan bo‘lsak, kreditning ssuda kapitali harakatining shakli ekanligini ko‘rish mumkin. Ayrim hollarda kredit tushunchasiga “qarzga berilayotgan ssuda (tovar, pul ko‘rinishida) tijorat ishonchi” deya ta’rif berilishini guvohi bo‘lamiz.

Bizning fikrimizcha, kreditga eng maqbul ta’rif bu – daromad olish maqsadida mablag‘lar (yoki tovar)ni shartnoma asosida ma’lum muddatda ma’lum foizi bilan qaytarish sharti bilan pul (yoki tovar)ni olish va qaytarib berish bilan bog‘liq munosabatlar hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda kredit faoliyatining ob’ekti va sub’ektiga ta’rif berish orqali iqtisodiy faoliyat turiga kiruvchi va asosiy maqsadi daromad olishga hamda o‘z manfaatlariga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatga kredit faoliyati sifatida ta’rif berilgan. Kredit faoliyati deganda kredit munosabatlari qatnashchilarining manfaatlarini ko‘zlab, ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan hamda bank xizmatlari va operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan faoliyatning yig‘indisini tushunishimiz mumkin. Kredit faoliyati kredit resurslariga ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan qayta taqsimlashni amalga oshirish hamda kredit faoliyatining sub’ektlari uchun daromad olish imkonini beradi.

Kredit faoliyati barcha manfaatdor taraflarga real foyda keltiradi. Qarz oluvchilar ma’lum bir muddatga o‘zlarining tijorat, ishlab chiqarish va boshqa shu kabi manfaatlariga yetishish maqsadida yirik pul kapitalidan foydalanish imkoniga

⁶Pul, kredit va banklar. Sh. Abdullayeva Toshkent 2003 y

⁷ D.A.Saidov. Tijorat banklarining kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari. Monografiya. – Toshkent. 2015 yil.

ega bo'ladilar. Kreditorlar esa foiz ko'rinishida daromad oladilar. Bundan tashqari, kredit faoliyati ishlab chiqarishga investisiyaning kirib kelishini rag'batlantiradi, progressiv tarkibiy siljishlarga turtki bo'ladi. Bugungi kunda kredit iqtisodiyotni makrodarajada tartibga solishning muhim vositalaridan biriga aylangan. U milliy valyuta va baholar barqarorligini, iqtisodiy o'sishni ta'minlash kabi birlamchi masalalarni hal etishda yordam beradi. Shunday qilib, kredit faoliyatini ikki sub'ekt - qarz oluvchi va qarz beruvchilarning bo'lishini taqozo etadigan amaliyot deyish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'ektlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun doimo qo'shimcha pul mablag'lariga ehtiyoj sezadilar. Ana shunday pul mablag'larining manbalari banklarning o'z va jalb qilingan mablag'lari bo'lishi mumkin. Korxonalar mablag' yetishmovchiligidan qiynalayotgan hollarda kredit resurslari bozoriga murojaat qilishga majbur bo'ladilar.

Kredit munosabatlarini rivojlanish jarayonida kreditning ikki asosiy nazariyasi shakllangan bo'lib, ular naturalistik va kapital yaratuvchilik nazariyalaridir. Ushbu nazariyalarni o'rganish alohida qiziqish uyg'otadi va foydadan holi bo'lmaydi.

Naturalistik nazariyaning asoschilari ingliz iqtisodchilari A.Smit va D.Rikardolardir. Fransuz iqtisodchilari J.B.Sey, F.Bastiya hamda amerikalik iqtisodchi D.Mak-Kulloxlardan ham ushbu nazariya tarafdorlaridir. Ular yaratgan g'oyaning mazmuni shundan iboratki, iqtisodiyotdagi bo'sh pul mablag'larni yig'ish orqali keyinchalik qayta taqsimlanadigan ssuda fondi tashkil etiladi, mablag'lar natural ko'rinishda qayta taqsimlanadi. Kredit ishlab chiqarishga bog'liq ravishda puldan foydalanish huquqlarining o'zgarish jarayoni yuz beradi. Bu nazariyaning asosiy xulosalari quyidagilardan iborat:

- kredit ob'ekti bo'lib natural, ashyoviy boyliklar hisoblanadi;
- kredit o'zida natural boyliklarning harakatini aks ettirganligi sababli jamiyatdagi mavjud moddiy boyliklarni qayta taqsimlash usulihisoblanadi;

- kredit passiv rolga ega bo'lishi sababli tijorat banklari faqatgina vositachi bo'ladilar xolos.

Naturalistik nazariya tarafdorlari kreditga bir-biriga qarama - qarshi bo'lgan ta'riflar berishgan. Ularning fikricha, bir tomondan kredit ishlab chiqarish natijasida hosil bo'ladigan real kapitalni yaratmaydi va kreditning ishlab chiqarishga bog'liqligini ko'rsatib, foizning daromad o'zgarishi va dinamikasiga bevosita bog'liqligini uqtiradilar. Ikkinchi tomondan esa kredit va uning yaratuvchisi bo'lmish banklarning ahamiyatini tushunmaslik bilan bir vaqtda kredit kapitalning o'sishiga va shu bilan birga undagi qarama -qarshiliklarining kuchayishiga ham olib keladigan ikkilamchi xarakterini tushunib yetmaganlar.

Kreditning kapital yaratuvchilik nazariyasining asosiy konsepsiyalari ingliz iqtisodchisi Dj.Lo tomonidan shakllantirilgan. Uning fikriga ko'ra, kredit takror ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmasdan, u iqtisodiyotda hal qiluvchi bo'lgan o'rinni egallaydi. Kredit mamlakatning ishlatilmayotgan barcha ishlab chiqarish imkoniyatlarini harakatga keltira olishi, boylik va kapital yarata olishi mumkin, bunda banklar vositachilar emas, balki kapital yaratuvchilari bo'ladilar.

Resurslarni qayta taqsimlash maxsus vositachilar – ya'ni, yangi pul yaratuvchilari bo'lmish banklar orqali amalga oshirilishiga asosiy urg'u beriladi. Mijozlarning hisob raqamlarida saqlanayotgan mablag'larni banklar nazariy jihatdan o'z hohishlariga ko'ra ishlata olmaydilar. Bu mablag'lar bankka emas, balki mijozga tegishlidir. Lekin aynan bir ob'ektga turli tomonlar egalik qila olmaydilar, kreditning hajmi nazariy jihatdan hech qanday cheklanish (chegara)larga ega emasligi sababi bu pullarning sof generatsiyasi banklardir.

Xorijlik iqtisodchilar – I.Shumpeter, A.Gan, Dj.Keyns, R.Xoutrilar XX asr boshlarida kapital yaratuvchilik nazariyasi tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdi. I.Shumpeter va A.Ganlar kredit kapitalni ham yaratadi deya banklarni o'ta qudratli deb hisoblaganlar. Ular kredit cheksiz bo'lishi mumkin, demakki u yaratadigan depozit va kapital ham cheksiz bo'ladi deb hisoblashgan. Ularning fikricha, inflyatsion kredit takror ishlab chiqarish jarayonini, iqtisodiy rivojlanishni

harakatga keltiruvchi kuch hisoblanib, iqtisodiy o'sishga doimo turtki berib turadi.

J.Keyns nazariyasi kreditning kapital yaratuvchilik qobiliyatiga asoslangan⁸. Bunda kredit iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi omil sifatida qaralgan. Iqtisodiyotni kredit orqali boshqarishning asosiy tamoyillari asoslab berilgan. Shu sababli ishlab chiqarishni va iste'mol bozorini rag'batlantirish uchun ssuda foizini kamaytirish orqali investisiyaning ko'payishi (kengayishi)ga erishish zarur, shart-sharoit yaratish lozim. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va iste'mol talablarining oshishiga hamda ishsizlikning kamayishiga olib keladi. J.Keyns ssuda kapitalini pulga tenglashtirgan va foiz darajasini umumiy muomaladagi pul miqdori orqali aniqlagan. Uning biroz keyin yaratgan konsepsiyasiga ko'ra pul foizga ta'sir ko'rsatadi, foiz – investisiyaga, investisiya – ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish – daromadga, daromad esa narxga ta'sir qiladi. Ayni vaqtda, pul massasi foizga ma'lum bir darajagacha ta'sir qiladi, foiz esa har doim ham investisiyaga istalgan shaklda ta'sir qila olmaydi.

Kapital yaratuvchilik nazariyasining keyingi rivoji monetarizm nazariyasida o'z aksini topdi. Monetarizm nazariyasi (ta'limotchilari) vakillari AQShda M.Fridmen, P.Rouz, A.Berns, Fransiyada J.Ryueff, GFRda O.Faytlardir. Ushbu nazariyaning yetakchi namoyondasi bo'lib, M.Fridmen hisoblanadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra iqtisodiyotni boshqarishning asosiy instrumenti kredit emas, balki pul massasi hamda foiz stavkalarining o'zgarishidir.

Kredit yordamida iqtisodiyotning to'lov vositalariga bo'lgan ehtiyoji ta'minlanadi, pul mablag'larini faol to'lov oborotidan chiqib qolishiga barham beriladi, iqtisodiyotning kapitallashuv darajasi oshadi. Ayni vaqtda, kreditning iqtisodiyotga va u orqali jamiyat hayotiga salbiy ta'siri ham mavjud. Masalan, iqtisodiyotga haddan ziyod ko'p kredit ajratilsa, bu holat inflyatsiyaning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. M.Fridmenning fikriga ko'ra, tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotni kreditlashni keskin oshirib yuborilishi pullar taklifini kuchayishiga va shuning asosida baholarning o'sishiga olib keladi.

⁸ Кейнс Дж. М. Общая теория занятости процента и денег. Пер. с англ. - Москва: Прогресс, 1979. -297 с.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kredit vositasida pullarni xo'jalik aylanmasiga kiritish har qanday holatda mumkin. Naqd pulsiz o'tkazmalar sharoitida Markaziy bank ham, tijorat banklari ham texnik jihatdan istalgan miqdordagi pulni muomalaga chiqarishi mumkin. Ammo tijorat banklarining naqd pulni muomalaga chiqarish imkoniyati cheklangan. Chunki muomaladagi naqd pul miqdori Markaziy bank balansining passividagi majburiyatlar summasidan oshmaydi va naqd pulni emissiya qilish vakolati faqat Markaziy bank zimmasidadir.

Markaziy bank muomalaga chiqaradigan to'lov vositalari uning balansini aktiv qismi doirasida amalga oshiriladi, tijorat banklarining imkoniyati esa, ularning likvidligiga nisbatan belgilangan talablar bilan chegaralanadi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash xususidagi masalalar to'g'risida to'xtalib, D.MakNoton rivojlanayotgan mamlakatlarda kreditlash amaliyotini tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biri kreditlarni garov ta'minoti asosida berishni odatiy hol sifatida qabul qilishdir, degan xulosaga keldi.⁹ Uning fikriga ko'ra, garov sifatida olinadigan mulkning sotilish bahosi kredit va uning foizini qaytarishga yetishi lozim. Bu esa, mulkni doimiy ravishda qayta baholab turishni taqozo qiladi. Bizning fikrimizcha, olimning mulkni davriy baholash to'g'risidagi fikri respublikamiz amaliyoti uchun ham juda muhim hisoblanadi. Chunki mulklarning joriy bahosini tez-tez o'zgarish holati mamlakatimizning xo'jalik amaliyotiga xos bo'lgan holat hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda milliy valyuta kursining chet el valyutalariga nisbatan doimiy ravishda o'sib borish tendensiyasini hamda baholarning muntazam o'sishini inobatga olgan holda kredit uchun garov sifatida qabul qilingan mol-mulk bahosini har oy yoki har chorak yakuniga qayta baholashni yo'lga qo'yish zarurdir.

V.Usoskin o'zining "Zamonaviy tijorat banki: operatsiyalari va boshqarish" nomli monografiyasida tijorat banklari kreditlash amaliyotining asosiy jihatlarini tadqiq qilgan. U tadqiqot natijalariga asoslangan holda, bir qator ilmiy xulosalarni

⁹ Д. Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах.-ИЭР МБРР.-Вашингтон Д.С., 1993.

shakllantirgan. Ana shunday muhim xulosalardan biri mijozni bank tomonidan kredit liniyasi ochish yo'li bilan kreditlash orqali kredit riski darajasini sezilarli darajada pasaytirish mumkinligidir¹⁰. Uning fikriga ko'ra, kredit liniyasi orqali mijozni kreditlashda kompensasion qoldiqdan foydalanish orqali mijozni nisbatan past foiz stavkasida kreditlash mumkin. Bu esa, kredit riskini kamayishiga, kreditni qaytish ehtimolini oshishiga olib keladi.

Fikrimizcha, kompensasion qoldiq xalqaro bank amaliyotida mijozning kredit to'lovi bilan bog'liq xarajatlarini kamaytirish vositasi sifatida o'zini oqlagan. Uni respublikamiz bank amaliyotida qo'llash kredit liniyasining mijoz uchun qulay kreditlash shakli sifatidagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

D.Polfreman, F.Fordlar muallifligidagi "Osnovi bankovskogo delo" kitobida mijozning kredit yig'ma jildini o'rganishga e'tiborni kuchaytirish kreditlash amaliyotini samarali tashkil etishning muhim omili sifatida qaralgan¹¹.

Hozirgi zamon jamiyatida banklar ko'p sonli va xilma - xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan muassasaga aylandi. Ular orqali iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash, qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish operatsiyalari, korxonalariga tegishli mulklarni boshqarish operatsiyalari va boshqa bir qator moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Biroq shunga qaramasdan kredit operatsiyalari tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan operatsiya sifatida saqlanib qolmoqda.

Respublikamiz bank amaliyotida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2004 yil 17 iyuldagi 578-sonli «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi» nomli yo'riqnomasiga asosan o'rta muddatli kreditlar toifasi bekor qilindi¹².

Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, G'arbiy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida kreditlar muddatiga ko'ra uch turga: qisqa, o'rta va uzoq muddatli

¹⁰ В.М.Усоскин. Современный коммерческий банк: управление и операции. - Москва:ВАЗАР-ФЕРРО», 1994.

¹¹ Д.Полфреман, Филип Форд. Основы банковского дело. Пер. с англ. - Москва:ИФРА-М, 1996.

¹²O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.

kreditlarga bo‘linadi. Bunda qisqa muddatli kreditlar jumlasiga bir yil muddatgacha beriladigan kreditlar, o‘rta muddatli kreditlarga bir yildan besh yilgacha va uzoq muddatli kreditlarga besh yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlar kiritiladi.

Qisqa muddatli kreditlash bu kreditlash ob’ektlari, kreditlash metodlari, ya’ni kreditlash tamoyillari bo‘yicha kredit berish va qaytarish usullariga asoslangan holda kreditning kapital aylanishida qatnashishi tushuniladi.

Banklarning qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish turli mamlakatlarda davlatning me’yoriy-huquqiy hujjatlariga asoslanadi. Ya’ni, banklar uchun mijoz va bank talablarini, Markaziy bankning me’yoriy hujjatlari, shuningdek, milliy tarixiy bank ishlarini hisobga olish zaruriyatini bildiradi.

Xorijiy va milliy iqtisodchilar kreditning mohiyati va roliga nisbatan turli xil nazariy yondashuvlarga ega bo‘lsalarda, ularning barchasi banklarni qisqa muddatli kreditlashni tashkil qilish asosini korxonaning to‘lov aylanmasi qonuniy ekanligi bilan bog‘lashadi¹³.

Mamlakat tijorat banklarining kreditlash amaliyotida korxonalarda o‘z aylanma mablag‘larining keskin yetishmovchiligi, biznesini rivojlantirishga va yangi texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha yetarlicha mablag‘ga ega emasligi banklar tomonidan kreditlashni rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi.

Tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli kreditlar – bu, qurilish, qayta qurish, ishlab chiqarish va ijtimoiy yo‘nalish ob’ektlarini texnik qayta jihozlash, texnika, texnologiya hamda uskunalarni sotib olish, asosiy podani shakllantirish, ko‘p yillik ekinlar xarajatlari bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish hamda boshqa investisiya maqsadlariga mo‘ljallangan kreditlardir.

Uzoq muddatli kreditlar asosan, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish va ular bilan bog‘liq sohalarni ta’minlashda ishlatiladi. Hozirgi davrda bank kredit

¹³ Левчук К.И. Эффективность краткосрочных кредитных вложений. - Москва: Финансы и статистика, 1988. -109 с.; Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования. Учеб. пос. / под. ред. О.И. Лаврушина. - Москва: КНОРУС, 2006. -256 с.; Qoraliyev T.M. va boshqalar. Xo‘jalik yuritishning hozirgi bosqichida kredit mexanizmi va banklar. –Toshkent, 1991. -80 b.; Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. – Toshkent: Moliya, 2007. - 348 b.

qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil qilib, ular kapital qo'yilmalarini, loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlatimiz iqtisodini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Uzoq muddatli kreditlar xo'jalik tashkilotlari tomonidan quyidagi ob'ektlar uchun jalb qilinishi mumkin:

- qayta tiklashga kapital xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- harakatdagi asosiy fondlarni kengaytirish va modernizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar uchun;
- yangi qurilish va qo'shimcha yuqori samarali tadbirlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish uchun;
- yangi fan, ilmiy texnika sohasida tadqiqotlar olib borish va yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish uchun va boshqalar.


Uzoq muddatli kreditlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda ro'yxatga olingan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lmish xo'jalik sub'ektlariga beriladi.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan uzoq muddatli kreditlar miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Shu sababli tijorat banklari oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu, kredit resurslarini samarali joylashtirish va ularni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash uchun avvalam bor kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil etish, mijozni moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganish muhim hisoblanadi.

1.2. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror va muvozanatlashtirilgan o'sishini ta'minlashda ichki va tashqi sharoitlardan kelib chiqqan holda, tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) boshqarish siyosatini to'g'ri tanlash muhim o'rin tutadi. TIFni boshqarish siyosatida tarif va notarif usullardan foydalanish darajalari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha

bo'ladi. O'zbekiston jahon bozoriga chiqib faol tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi uchun yuqorida ta'kidlangan usul va vositalardan imkoni boricha qayishqoq grafik shaklda, milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Buning uchun taraqqiy etgan mamlakatlar xususan, Yaponiya tomonidan qo'llanilayotgan usul va vositalarni doimiy tahlil etish, ularni O'zbekiston sharoitiga muvofiq keladiganlarini o'zlashtirib olish lozim. Jahon savdosi erkinlashib borishi bilan barcha rivojlangan davlatlar notarif usullardan ichki bozorlarini himoyalash yoki tashqi bozorda faoliyat ko'rsatayotgan eksportchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llashga harakat qilmoqdalar.



1-rasm. Tashqi savdoni notarif usulda tartibga solish choralari¹⁴:


Zamonaviy hisob-kitoblarga ko'ra, hozirda davlatlar, Xalqaro savdo ishtirokchilari, jahon importining umumiy hajmining 18-30 foiziga nisbatan notarif

¹⁴ Трошкина Т.Н. Нетарифные меры в системе государственного регулирования международной торговли (на примере развитых стран). Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М.: 2010.

tartibga solish choralarini qo'llashmoqda. Ayni paytda, barcha rivojlanayotgan davlatlar tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish uchun (*ba'zi mamlakatlarda jami importning 40% miqdorida*) notarif to'siqlardan foydalanadilar¹⁵.

Rus tadqiqotchisi T.N. Troshkina xalqaro savdoda davlatlar tomonidan TIFni tartibga solishda notarif choralarining ma'lum bir usullarini qo'llash orqali bir tomondan TIFni boshqarish bo'yicha milliy mexanizmlarning tashkiliy-huquqiy asoslarigato'la mos keladigan, boshqa tomondan esa ichki bozorni himoya qiluvchi eng maqbul himoya chorasiga ega bo'lishini tushuntirib bergan. Tadqiqotchi tashqisavdoni notarif boshqarishni tasniflaydi.

Umuman olganda xalqaro savdoda mahsulotlarga qo'llaniladigan notarif usullarning mavjudligi, har bir mamlakatning o'z milliy ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, ularning xalqaro savdoda mahsulotlarini raqobatbardoshligini ta'minlashga olib keladi.



2-rasm. Dunyodagi savdo cheklovlarining tuzilishi¹⁶.

¹⁵ Дудин С.Г., Толстова А.З., Суровцева Е.С. Доверие в макроэкономике.// Экономика: теория и практика. 2015. №2 (38). С. 44-49.

¹⁶ Manba: <https://i-tip.wto.org> ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Butun jahon savdo tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kundagi savdo cheklovlarining tuzilishida texnik to'siqlar 51,2% (qadoqlash va markerlash, xom-ashyoni sertifikatlash qoidalari va tartibiga oid talablar va standartlar kiradi), sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar 37,7% (o'simliklar va o'simlik mahsulotlarining bojxona rasmiylashtiruvi uchun O'zbekiston Respublikasi o'simlik karantini bosh inspeksiyasi tomonidan ularning xavfsizligini tasdiqlash uchun beriladigan hujjat), dempingga qarshi tekshirishlar 4,9% (tovarlar bojxona hududiga real bahosidan past narxlarda olib kirilgan, bunday olib kirish ichki ishlab chiqaruvchilarga ziyon yetkazgan yoki yetkazish xavfini tug'dirgan hollarda qo'llaniladi), miqdoriy cheklovlar 2,6% (import kvotalari, eksport cheklovlari, lisenziyalash, taqiqlar, valyuta cheklovlari), maxsus himoyachoralari 1,6% va boshqa turdagi choralar 1,1%ni tashkil qiladi¹⁷.

Shuningdek, Butun jahon savdo tashkilotining tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlariga qaramasdan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'lqinlari sharoitida tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida qo'llanilayotgan notarif chora- tadbirlar, jumladan, sanitar va fitosanitar chora- tadbirlar soni o'sib bormoqda¹⁸.

2000-2015 yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, qo'llanilgan sanitar va fito sanitar chora-tadbirlar soni 468 tadan 1681 tagacha, texnik to'siqlar soni esa 633 tadan 1989 tagacha ortganligini ko'rsatmoqda. 2000-2015 yillarda mamlakatlarning taraqqiy etishi va insonlarni iste'mol sog'lig'iga bo'lgan e'tiborning ortishi sababli sanitar va fito sanitar chora-tadbirlarning 3,6 martaga ko'payishiga olib keldi. Texnik to'siqlarning esa 3 marta ko'p qo'llanilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, xalqaro savdoda foydalanilgan notarifusullarning qo'llanilishi o'rtacha 0,4 foizga ortdi.

¹⁷“Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishning innovatsion jihatlari: xorij tajribasi, zamonaviy tendensiyalar, ustuvor yo'nalishlari”, Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2017-yil 10-may, -T.: ToshDShL. - 295 b.

¹⁸<http://i-tip.wto.org/goods/Forms/GraphView>. (World Trade Organization)



3-rasm. Xalqaro savdoda qo‘llanilgan notarifusullar sonining o‘zgarishi, birlik¹⁹.

O‘zbekiston Respublikasida texnik to‘siqlar, milliy standartlarni ishlab chiqish tovarlarni sertifikatlash va respublikaning boshqa milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo‘llanilmoqda²⁰.

Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha, taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari eksportiga nisbatan qo‘llanilayotgan tariflar kamlik qilsa, ularga nisbatan notarif xarakterdagi to‘siqlar ham joriy etilmoqda.

Yaponiya misolida mamlakatlar tomonidan amalga oshirilayotgan eksport tovarlarga nisbatan notarif to‘siqlarni qo‘llash hollari kuzatilgan. Notarif to‘siqlarni qo‘llash bo‘yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va Shveysariyani kiritish mumkin²¹.

TIFda notarif usullardan foydalanish va ularning soniga ko‘ra, Yaponiya

¹⁹ Министерство экономического развития Российской Федерации Департамент координации, развития и регулирования внешнеэкономической деятельности бизнес – путеводитель по Японии. Япония. 2016 год.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 11 noyabrdagi “Ozonni buzuvchi moddalarni va tarkibida ular mavjud bo‘lgan mahsulotlarni o‘zbekiston respublikasiga olib kirishni va O‘zbekiston respublikasidan olib chiqishni tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida” gi 247-son qarori.

²¹ Vahabov A.L., Tadjibayeva D.A., Xajibaknev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O‘quv qo‘llanma. - T.Moliya. 2011. - 708 b.

yuqori darajada rivojlangan mamlakat hisoblanib, notarif boshqarishning huquqiy va tashkiliy asoslari mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va aholi salomatligini ta'minlashda samarali faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda Yaponiyaning xalqaro savdoda mamalakatlarga qo'llaydigan notarifusullari jami 1397 tani tashkil qiladi. Jumladan, texnik to'siqlar

775 ta, sanitar va fito sanitar chora-tadbirlar 498tani tashkil qiladi. Bundan ko'rinadiki, Yaponiya o'zi import qilayotgan tovarlarni sifatiga jiddiy e'tibor beradi²².

Yaponiya, asosan olib kiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari-sut va an'anaviy chorvachilik mahsulotlariga cheklovlar joriy etgan bo'lib, agar ularning importi me'yordan oshib ketsa- import bojlarining yuqori stavkalari qo'llaniladi.

Yaponiyaning "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi Qonunining 27-moddasida importyorlarning majburiyatlari belgilangan bo'lib, bunda tovarlar importi vaqtida unga nisbatan vakolatli shaxs oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqatga qo'shimchalar, sotish yoki tadbirkorlik faoliyatida foydalanish niyatida olib kelingan tegishli uskunalar va qadoqlar uchun, Yaponiya Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli karantin stansiyasi tomonidan tasdiqlangan ruxsatnomani taqdim etishi lozim. Shuningdek, import haqidagi xabar nomani taqdim etish talabi yuqorida ko'rsatilgan mahsulotlar bilan birga Yaponiyaga pochta jo'natmalari orqali olib kiriladigan bolalar o'yinchoqlariga ham tegishli hisoblanadi²³.

Bugungi kunda, dunyo mamlakatlarida aholining oziq-ovqatga nisbatan talabini qondirish maqsadida genetik jihatidan o'zgartirilgan (GMO) mahsulotlardan foydalanish ko'payib bormoqda. Jumladan, "Genetika jihatidan o'zgartirilgan organizmlardan foydalanishni tartibga solish orqali o'simlik va hayvonot dunyosining biologik xilma-xilligini saqlash to'g'risida"gi 2003 yil 18 iyundagi Yaponiyaning №97 sonli Qonuniga muvofiq, GMO mahsulotni olib

²² Соркин, С.Л. Внешнеэкономическая деятельность предприятия: экономика и управление / С. Л. Соркин. – Минск: Современная школа, 2006. – 283 с.

²³ Министерство экономического развития Российской Федерации Департамент координации, развития и регулирования внешнеэкономической деятельности бизнес – путеводитель по Японии. Япония. 2016 год.

kiruvchi shaxslar ushbu mahsulotlarni tasarruf etishidan oldin vakolatli vazirlikdan tegishli ruxsatnomaga ega bo'lishi lozim. Mazkur shaxslar Yaponiya hukumati GMOlardan foydalanish rejasi va ularning bioxilma-xillikka yetkazishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siri bilan tanishtirishi kerak.

Bundan tashqari, Yaponiya hukumati har qanday tovarlarga ularni import qilish bo'yicha hukumat tasdig'ini olish majburiy bo'lgan cheklash choralarini kiritishi mumkin. (*“Tashqi savdo to'g'risida”gi Yaponiya Qonunining 52-moddasi*).

Bunday choralar quyidagi sabablarga ko'ra joriy etilishi mumkin:

- tashqi savdo va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishish uchun;
- Yaponiya tomonidan imzolangan shartnomalar va boshqa Xalqaro bitimlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni adolatli bajarish maqsadida;
- Vazirlar Mahkamasining qarorini amalga oshirish uchun;
- Yaponiyada tinchlik va xavfsizlikni saqlab qolish uchun cheklovlar qo'yish zarur bo'lganda.

Tovarlar importini cheklovchi hokimiyatning ijro organi Yaponiyaning iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (ISSV) hisoblanadi. Qonun normalariga muvofiq vazirlikka ba'zi mahsulotlar importini cheklash huquqi berilgan. Shu bilan birga, har qanday Qonunni buzgan yoki unga muvofiq biron-bir noto'g'ri hujjatni qabul qiladigan importyorga ISSVning buyrug'i bilan tovarlarni bir yilgacha import qilishi ta'qiqlanishi mumkin (*«Tashqi savdo to'g'risida»gi Qonunning 53-moddasi*)²⁴.

Bundan tashqari, mahsulotlar importida mamlakat tomonidan qattiq tartibda o'rnatilgan sertifikatlash, sifat nazorati inspeksiyasi, texnik xavfsizlikka biotexnik va boshqa turdagi maxsus standartlardan foydalanadi. Bunda asosan mahsulotlar sifatiga, xususan, ularning ekologik tozaligiga, tarkibidagi komponentlar miqdori,

²⁴ Министерство экономического развития Российской Федерации Департамент развития и регулирования внешнеэкономической деятельности бизнес – путеводитель по Японии. Япония. 2017 год.

tarkibidagi moddalarning to‘yimlilik darajasiga qaraladi²⁵.

Shu bilan birga, Yaponiyada TIFni notarif tartibga soluvchi barcha normativ hujjatlar ikki guruhga bo‘linadi:

Birinchi guruh tashqi savdo rejimini va eksport-importni tartibga solishni belgilaydi. Unga eksport-import operatsiyalarining bevosita predmeti hisoblanuvchi hujjatlar va notarif boshqaruvning turli jihatlarini o‘zida aks ettirgan me‘yorlar kiradi.

Ikkinchi guruhga turli ijtimoiy-foydali maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan huquqiy normalar (masalan, karantin va sanitar choralarni, farmasevtikani, davlat monopoliyasini, qurol aylanishi ustidan nazorat, avtomobil sanoati mahsulotlari xavfsizligini oshiruvchi, tarixiy yodgorliklarni asrash choralarin tartibga soluvchi vab.) kiradi.

Yaponiyada tashqi savdoni notarif usulda tartibga solish bo‘yicha aniq belgilab qo‘yilgan normalarning mavjudligi xorijiy investorlarning ikkilanishlarsiz ushbu davlat hududiga mablag‘ olib kirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, TIFni notarif boshqarish orqali Yaponiya milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi ta’sirlardan himoya qiladi, aholi salomatligiga zararli mahsulotlar importini cheklaydi hamda Yaponiyaning hududiga uning ekologik holatiga zarar putur yetkazishi mumkin bo‘lgan jahon standartlariga mos kelmaydigan mahsulotlarni olib kirilishini oldini oladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston jahon bozoriga chiqib faol tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi uchun yuqorida ta’kidlangan, tinchlik va xavfsizlikni, aholi salomatligi, ekologik tozalikni himoya qilishga, mahsulotlar importi jarayonidagi qonunga hilof harakatlarni oldini olishga yo‘naltirilgan usul va vositalardan imkoni boricha qayishqoq (egiluvchan) grafik shaklda, milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda foydalanishi mumkin. Shuningdek, tashqi savdoni tartibga solishda

²⁵ <https://i-tip.wto.org> (World Trade Organization)

mamlakatimizda Yaponiya tomonidan bosqichma-bosqich qo'llanilayotgan vosita va usullarni ichki vaziyatidan kelib chiqib, shuningdek, asosiy hamkorlarimizning biz bilan amalga oshirayotgan investisiyaviy, infratuzilmaviy loyiha va dasturlarining istiqbolidan kelib chiqib qo'llash natija beradi, deb hisoblash mumkin. Demak, Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, respublikadagi mavjud siyosiy va iqtisodiy vaziyatni e'tiborga olib, notarifusulda tartibga solish choralarini qo'llash va bu borada doimiy faoliyat yuritadigan idoralararo ishchi guruhini tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz tijorat banklarining kreditlash amaliyotining mohiyati va iqtisodiy asoslari mamlakatimiz iqtisodchilari tomonidan yetarli darajada tadqiq qilingan bo'lib, ularni o'rganib, umumlashtirib bizning fikrimizcha, kreditga eng maqbul ta'rif bu – daromad olish maqsadida mablag'lar (yoki tovar)ni shartnoma asosida ma'lum muddatda ma'lum foizi bilan qaytarish sharti bilan pul (yoki tovar)ni olish va qaytarib berish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Kredit amaliyoti daromad olish maqsadida mablag'lar (yoki tovar)ni shartnoma asosida ma'lum muddatda ma'lum foizi bilan qaytarish sharti bilan pul (yoki tovar)ni olish va qaytarib berish bilan bog'liq munosabatlar.

Shunga mos ravishda tijorat banklari kreditlash tizimining huquqiy asoslari ham yaratilib, ushbu normativlar jahon tajribasini hisobga olgan holda, ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari o'rganib, hozirda jahon andozalariga deyarli mos tushadigan shaklga keltirilgan.

Bundan tashqari mamlakatimiz rahbarining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni asosida barcha sohalarda bo'lgani kabi keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda.

II.BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI IMTIYOZLI KREDITLASH AMALIYOTINING HOLATI VA TAHLILI

2.1. O‘zbekiston tijorat banklari imtiyozli kreditlash amaliyotining zamonaviy holati va tahlili

Jamiyatning rivojlanishi hamda bozor munosabatlarining qaror topishi ko‘p sonli banklar va ularning xilma-xil moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadigan tashkilotlarga aylanishiga zamin yaratadi. Banklar orqali iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash, qimmatli qog‘ozlar va chet el valyutalarini sotib olish hamda sotish operatsiyalari, korxonalariga tegishli mulklarni boshqarish operatsiyalari va boshqa qator moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan tijorat banklari faoliyatida kredit operatsiyalarining o‘rni alohida bo‘lib, birlamchi ahamiyatini saqlab qoldi. Ayni vaqtda, banklar faoliyatida kreditlash amaliyotining o‘rni va ahamiyati kundan - kunga oshib bormoqda.

Xalqaro bank amaliyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘ining o‘sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bu ko‘rsatkichning o‘rtacha darajasi 42 foizni, Yaponiyada 64 foizni, Rossiyada 17 foizni tashkil etgan²⁶.

Bank kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog‘ining oshishi iqtisodiyotning kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish darajasini oshayotganligidan dalolat beradi. Bu jarayon, pirovard natijada, iqtisodiy o‘sish uchun qulay zamin hozirlaydi. Shunday ekan kreditlash amaliyotining tijorat banklari faoliyatida tutgan o‘rnini baholashda kredit qo‘yilmalarining YaIMdagi xamda tijorat banklarining aktivlaridagi salmog‘ini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁶ Кредитование реального сектора экономики. Материалі круглого стола конференции // Банковское дело. – Москва, 2014.- №5 -С.3.

**O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aktivlari va kredit
qo‘yilmalari dinamikasi²⁷, (mlrd. so‘m)**

| Ko‘rsatkichlar | 2011 yil | 2012 yil | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2016 yil |
|-----------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| YaIM | 77 751 | 96600 | 119000 | 144900 | 177400 | 199300 |
| Aktivlar | 27453 | 35744 | 43868 | 56223 | 65176 | 80362 |
| YaIMga nisbatan foizda | 35,3 | 37 | 36,9 | 38,8 | 36,7 | 40,3 |
| Kreditlar | 15652 | 20392 | 26530 | 34809 | 42685 | 53379 |
| YaIMga nisbatan foizda | 20,1 | 21,1 | 22,3 | 24 | 24,1 | 26,8 |
| Aktivlarga nisbatan foizda | 57 | 57,1 | 60,5 | 61,9 | 65,5 | 66,4 |

Yuqoridagi 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2011-2016 yillar mobaynida kredit qo‘yilmalari mutlaq miqdorining o‘shish tendensiyasi kuzatilgan. Ya’ni, kredit qo‘yilmalari 2011 yilda 15652 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu 2016 yilga kelib 53379 mlrd. so‘mni tashkil etgan va 2011 yilga nisbatan 37727 mlrd. so‘mga yoki 3,4 barobarga oshgan. Shunga mos holda uning YaIMdagi salmog‘i mazkur davr mobaynida 2011 yilda kredit qo‘yilmalarining YaIMdagi ulushi 20,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib esa 26,8 foizni tashkil etgan. Bu ijobiy holat hisoblanib, bank tizimi aktivlari hisobidan iqtisodiyotni real tarmoqlarini bank kreditlari bilan ta’minlash imkoniyatini oshayotganligini bildiradi.

Bundan tashqari jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2011–2016 yillar mobaynida iqtisodiyotning real sektorlariga tijorat banklari tomonidan yo‘naltirigan kredit qo‘yilmalari va bank aktivlarining dinamikasi keltirilgan. Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari va aktivlari o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

²⁷Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlari asosida hisoblandi.

Tahlil qilingan davr mobaynida bank kreditlarining aktivlar hajmidagi salmog‘i o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Ya’ni, 2011 yilda jami bank aktivlari tarkibida kreditlarning hajmi 57 foizni tashil etgan bo‘lsa, 2016 yilga kelib esa 66,4 foizni tashkil qilgan. Bu ijobiy holat hisoblanadi va tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilayotgan kreditlar hajmini oshayotganligidan dalolat beradi.

Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Italiyaning yirik banklarida kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog‘i 62 foizdan 83 foizgacha boradi²⁸.

Dunyoning ayrim yirik tijorat banklari aktivlarining tahlili ko‘rsatadiki, aktivlar tarkibida kreditlar, salmog‘iga ko‘ra, birinchi o‘rinni egallaydi. Tijorat banklari yalpi daromadining asosiy qismini kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar tashkil etishini tegishli jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin. Bu esa, kreditlash amaliyotining banklar faoliyatidagi ahamiyatining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Banklarning aktivlari tarkibida salmog‘iga ko‘ra ikkinchi o‘rinni qimmatli qog‘ozlarga qilingan investisiyalar egallaydi. Bu esa, ularning fond birjalaridagi faoliyati ko‘lamining kengayayotganligidan hamda joriy likvidlikni yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar hisobidan ta’minlayotganligidan dalolat beradi. Buning boisi shundaki, kassali aktivlarning jami aktivlar hajmidagi salmog‘i kichik bo‘lib, yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlar banklar likvidliligini ta’minlashning asosiy vositasiga aylanib bormoqda.

Xalqaro bank amaliyotida qabul qilingan andozalarga muvofiq, kreditlar tijorat banklari aktivlarining tarkibida kamida 60 foizni tashkil etadi.

Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banki Boshqaruvi va bank Kengashi kelishgan holda muddati o‘tgan kreditlarni bankning balansidan chiqarishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga ajratilgan kredit qo‘yilmalarining o‘sishi qisqa muddatli yoki uzoq muddatli


²⁸ D.A.Saidov. Tijorat banklarining kreditlash amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘llari. Monografiya. – Toshkent. 2015 yil.

kreditlar o'sishi evaziga o'zgarishini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiyotning real sektorlariga beriladigan kreditlarning muddati bo'yicha taqsimlanishi, bank resurslarining muddatiga ham bog'liqdir.

Banklarning kredit qo'yimalari tarkibida tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari ulushini oshirish bo'yicha ko'rilgan choralar tufayli uzoq muddatga berilgan kreditlarning banklar kredit portfelining umumiy hajmidagi ulushi hozirgi paytda 80 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda²⁹.

Mamlakatimizda keng ko'lamli aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarni faoliyatini yerkinlashtirish ularga xar tomonlama ko'maklashish davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirishda tijorat banklarining o'rni beqiyosdir. Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida yaratilayotgan kulay ishbilarmonlik muhiti ushbu soha hamda bank faoliyati chambarchas ravishda rivojlanib borishiga asos bo'lmoqda. Natijada sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar bank tizimida erishilgan ko'rsatkichlar nafaqat xalqaro umumqabul qilingan me'yorlarga mos keladi, balki ayrim yo'nalishlar bo'yicha undan ham yuqori ko'rsatkichlarga erishildi.



4-rasm. O'zbekiston tijorat banklari tomonidan ajratilgan investitsion kreditlar³⁰ (trln. so'm)


²⁹ www.cbu.uz sayti ma'lumotlaridan olindi.

³⁰Markaziy bankning yillik hisobotlari

Yaratilgan qulay investisiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investisiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqalashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investisiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, banklarning investisiya maqsadlariga ajratilgan kreditlari hajmi ham 2015 yilga nisbatan qariyb 1,2 barobar oshib, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 12,2 trln. so'mni tashkil qildi.

Hukumatimizning kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida ilgari surilgan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ajratilgan kreditlar hajmi 2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2015 yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshib, qariyb 15,9 trln. so'mni, shundan mikrokreditlar hajmi 1,3 barobarga ortib, 3,3 trln. so'mdan ortiqni tashkil etdi.




5-rasm. O'zbekiston Respublikasining tijorat banklari tomonidan barcha moliyalashtirish manbalari xisobidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar, shundan, mikromoliyaviy xizmatlar va "Asakabank" ATB tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar³¹. (trln. so'm)

³¹Markaziy bankning yillik hisobotlari asosida tayyorlandi.

Jumladan, mikrokreditlar hajmi 2,5 trln. soʻmdan oshib, bu koʻrsatkich ham oʻtgan yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oʻsdi. Tijorat banklari tomonidan ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan kreditlar hajmi oʻtgan yilga nisbatan 1,3 barobar oʻsib, shu yilning 1 yanvar holatiga koʻra 1,2 trln. soʻmdan oshib ketdi.

Shuningdek, banklar tomonidan yoshlarni, ayniqsa kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning biznes loyihalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashga ham jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. 2016 yili mazkur yoʻnalishga ajratilgan mikrokreditlar 362,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi yoki 2015 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobar oʻsishi taʼminlandi.



6-rasm. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga ajratilgan mikrokreditlar³² (mlrd. soʻm)

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish borasida erishilgan yutuqlar Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining tadbirkorlik faoliyatini yuritish shart-sharoitlari boʻyicha «Doing Business - 2016» navbatdagi yillik hisobotida yana bir bor oʻz tasdigʻini topdi. 2015 yilning oktabr oyida chop etilgan hisobotga koʻra, kreditlash shartlari boʻyicha soʻnggi uch yilda mamlakatimizning reytingi 113 pogʻona, yaʼni 154-

³²Markaziy bankning yillik hisobotlari.

o‘rindan 42-o‘ringa ko‘tarildi.

Bu esa, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini kengayishida bank kreditlaridan foydalanishni sezilarli darajada o‘sganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari tijorat banklari o‘zlarining kredit amaliyotlari orqali o‘zlarining daromadlilikini ta‘minlamoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyidagi jadvalda mamlakatimiz tijorat banklarining daromadlari tarkibida kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar ulushini tahlil qilamiz.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari tarkibida kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar ulushi³³

| № | Daromadlar | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 |
|----|--|-------|--------|--------|--------|--------|
| 1. | Berilgan kreditlar va boshqa mablag‘larni joylashtirishdan olingan foizlar | 56,42 | 56,87 | 56,17 | 57,46 | 59,76 |
| 2. | Komission daromadlar | 34,70 | 33,18 | 33,91 | 31,97 | 29,91 |
| 3. | Xorijiy valyutadagi daromadlar | 4,65 | 4,55 | 3,43 | 4,05 | 4,25 |
| 4. | Tijorat operatsiyalaridan olingan daromadlar | 0,02 | 0,0001 | 0,0007 | 0,0008 | 0,0016 |
| 5. | Investitsiyadan olingan daromadlar | 0,48 | 0,91 | 1,46 | 1,27 | 1,07 |
| 6. | Boshqa daromadlar | 3,78 | 4,49 | 5,03 | 5,25 | 5,00 |
| | JAMI | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

Yuqoridagi jadval ma‘lumotlari orqali shuni ko‘rish mumkinki, banklarning daromadlari tarkibida berilgan kreditlar va boshqa mablag‘larni joylashtirishdan olingan foizlar yuqori salmoqqa ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2012 yilda 56,42 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilda esa, 59,76 foizni tashkil etmoqda. Banklarning daromadlari tarkibida tijorat operatsiyalaridan olingan daromadlar va investitsiyadan olingan daromadlar eng past salmoqqa ega bo‘lib, 2014 yilda investitsiyadan olingan daromadlar birmuncha ko‘payib, bu ko‘rsatkich jami

³³ Manba: “Ahbor-Reyting” reyting agentligining hisobot ma‘lumotlari. (2012-2016)

daromadlar tarkibida 1,46 foizga oshgan. 2016 yilda esa, investisiyadan olingan daromadlar 0,39 foizli punktga pasaygan (2-jadvalga qarang).

Shu bilan bir qatorda, tijorat banklari daromadlari tarkibida komission daromadlar ham birmuncha yuqori salmoqqa ega bo‘lib turibdi. 2012 yilda tijorat banklari komission daromadlarining jami daromadlardagi hissasi 34,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilda esa, bu ko‘rsatkich 4,79 foizli punktga sezilarli ravishda pasaygan.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami foizli daromadlardagi salmog‘i 60 foizdan kam bo‘lmasligi kerak, deb hisoblashadi. Buning uchun kreditlarning tijorat banklari aktivlari salmog‘i ham 60 foizdan kam bo‘lmasligi lozim. Bu holat ayrim tijorat banklarida salbiy hisoblanadi, ya’ni bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 60 foizdan kamni tashkil etadi.

Mamlakatimiz moliya-bank tizimidagi izchil islohotlar, uni modernizatsiya qilish va barqarorligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida tijorat banklari aktivlari, jumladan, kreditlar hajmida barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda.


Mamlakatimiz banklarining barqaror holati, bank tizimiga bo‘lgan ishonchning yildan-yilga oshishi hamda aholi real daromadlarining o‘sib borishi aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bo‘sh pul mablag‘larini omonatlarga jalb qilishning mustahkam asosi bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda tadqiqot sifatida o‘rganish maqsadida “Asakabank” ATB faoliyati tanlandi. “Asakabank” Aksiyadorlik tijorat banki 5 may 2006 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 3750-sonli farmoni va Vazirlar Mahkamasining 78-sonli qaroriga asosan bank tashkil etilib, 2006 yil 13 mayda 37-sonli bank operatsiyalarini o‘tkazish uchun Respublika Markaziy banki lisenziyasi berilgan. bugungi kunda 2013 yil 13 maydagi 26-sonli asosiy bank lisenziyasi va 2013 yil 13 apreldagi 27-sonli valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi lisenziya orqali faoliyat yuritib kelmoqda.

“Asakabank” ATB tarmog‘i, jumladan 85 ta filial va 110 ta minibanklari 3894 nafar hodimdar respublikamizning barcha mintaqalaridagi jumladan, eng chekka hududlardagi aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi va bank mijozlari soni qariyb 403 mingtaga yetdi.

Kreditlash bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bankning kreditlash siyosati xalqaro tajribaga tayangan holda qarzdorliklarni diversifikatsiya qilish orqali xatarlilik darajasini kamaytirish hamda bank daromadlilik darajasini oshirish bilan uning raqobatbardoshlik holatini mustahkamlashga qaratilgan. Bankning kreditlash bozoridagi ustuvor yo‘nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik sub’ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishdan iborat.

Bank mamlakat iqtisodiyotining real sektorini kreditlashda katta rol egallab, ushbu muhim yo‘nalishni to‘xtovsiz rivojlantirdi va kredit portfeli hajmini kengaytirib bordi. 2017 yil boshida bank kredit portfeli 2015 yil boshiga nisbatan 27,6 foizga o‘sgan holda, 1055,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




7-rasm. Bank aktivlari va kredit qo‘yilmalarini o‘shish dinamikasi³⁴
(mlrd.so‘mda)

Bank kredit portfeli umumiy miqdori 1055,1 mlrd. so‘mni tashkil qilgan.

³⁴“Asaka” ATBning yillik hisobotlari asosida tayyorlandi.

Bank kredit portfeli sifati yuqori darajada saqlanib kelinmoqda. yillik taqqoslaganda muammoli kreditlar ulushi deyarli o'smagan va Bank kredit portfelinin 4,0 foizini tashkil qilgan.

Kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirish siyosati negizida pul resurslarining bozor bahosi, shuningdek raqobatchi banklar takliflarining doimiy monitoringini amalga oshirish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu o'z navbatida Bank tomonidan mijozlarga aktual kredit mahsulotlarini bozor bahosida taklif etish imkonini yaratadi. Kreditlash nuqtai nazaridan asosiy e'tibor ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan, asosiy aylanmalari hajmi bankdagi hisobvaraqlari orqali o'tadigan korxonalariga qaratilmoqda.




8-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kredit portfeli tahlili³⁵

Bankning aktiv amaliyotlarini diversifikatsiyalash siyosati natijasida kredit quyilmalari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi, xususan sanoatga 102,9 mlrd. so'm, qishloq xo'jaligiga 414,4 mlrd. so'm, transportga 5,9 mlrd. so'm, qurilishga 53,5 mlrd. so'm, savdoga 87,4 mlrd. so'm, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasiga 89,1 mlrd. so'm va boshqa tarmoqlarga 75,9 mlrd. so'mni tashkil qilmoqda ajratildi.

³⁵“Asaka” ATBning 2016 yil yakuniga bag'ishlangan hisobotlari asosida tayyorlandi.

Kreditlarning qaytmaslik xatarini xedjirlash maqsadida Bank yil davomida kredit portfelini zahiralar bilan qoplanishini ta'minlagan. Mazkur holat kreditlarni hisobdan chiqarish tufayli foyda miqdorining o'zgarishlaridan holi bo'lish, moliyaviy faoliyatga barqaror shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi. 2016 yil yakuniga shakllantirilgan zaxiralarning kredit portfeliga nisbati 4,7 foiz darajasida bo'lgan.



9-rasm. Kredit qo'yilmasi tarkibi³⁶ (mlrd. so'm)

Bank tomonidan jami 1055,1 mlrd. so'm miqdorida kreditlar, shu jumladan 384,6 mlrd. so'mi kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan. Bank oxirgi yillarda kichik biznes sub'ektlarini tashkiliy va moliyaviy qo'llab-quvvatlash faoliyatini yanada kengaytirib, bank tizimida yuqori ulushga ega bo'ldi.

Kreditlash yo'nalishi bo'yicha bank o'z oldiga kredit portfelining o'sishi, uning daromadliligi va sifati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, kreditlash jarayonlarini maqbullashtirish, mijozlarga mo'ljallangan ish modelini ishlab chiqish va tadbiq qilish vazifalarini qo'yadi. Kredit siyosatiga muvofiq, shu bilan

³⁶“Asaka” ATBning yillik hisobotlari asosida tayyorlandi.

birga iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab quvvatlash maqsadida yil yakuniga uzoq muddatli kreditlar ulushi umumiy kredit portfelining qariyb 81 foizidan ziyodini tashkil qilgan. Bank iqtisodiy markazlardan yiroq tumanlarda iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish, savdo, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasida o‘z biznesini tashkil qilgan, yirik bo‘lmagan korxonalarni maqsadli segment sifatida moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Bu kompaniyalarni rivojlantirish bilan birga, Bank raqobatbardosh mahalliy mahsulotlar eksportchilarini ham rivojlantirishga yordam bermoqda.

3-jadval

ATB “Asakabank” tomonidan ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar³⁷

(mlrd. so‘m)

| Xizmatlar | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2016 yil |
|--------------------------------|----------|----------|----------|----------|
| Mikromoliyaviy Xizmatlar | 245,8 | 296,7 | 362,1 | 441,7 |
| Shundan: kollej bitiruvchilari | 21,4 | 37,4 | 48,1 | 66,6 |
| Tadbirkor Ayollar | 58,8 | 74,4 | 90,2 | 117,5 |

Xususan, Respublikaning barcha tijorat banklari tomonidan kichik biznesga ajratilgan kreditlarda bank ulushi 7 foizni, jumladan mikromoliyaviy xizmatlarda 14,3 foizni hamda banklar kreditlari hisobidan yaratilgan ish o‘rinlari bo‘yicha 7,9 foizni tashkil etdi. Shu jumladan, Respublika bank tizimi orqali tadbirkor ayollarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlarda Asakabank ulushi 7,2 foizni va kasb-hunar kollejarining bitiruvchilariga ajratilgan kreditlarda 17,3 foizni tashkil etdi.

Bankda birgina 2016 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga 441,7 mlrd. so‘mlik mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatildi. Ushbu ko‘rsatkich har yili oshirib borilmoqda. Shunga mos ravishda bank tomonidan kollej

³⁷ Manba: “Asakabank” ATB yillik hisobotlari.

bitiruvchilarni o'zlarining yangi biznes loyihalarini amalga oshirish uchun imtiyozli shartlarda va kam foizlarda kreditlar ajratib kelmoqda. Birgina 2016 yilda bank tomonidan kollej bitiruvchilariga 66.6 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilgan. Shu bilan birga bank o'tgan yili ayol tadbirkor, shuningdek ishlovchilarning kamida 50 foizini xotin-qizlar tashkil qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlariga 117.5 mlrd. so'mlik mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatgan.

2.2. ATB "Asaka" bankning tashqi savdoni kreditlash amaliyotining tahlili.

Xalqaro ekspertlarning tahlillariga ko'ra, jahon savdosining 80-90 foizi rivoji bevosita moliyaga bog'liq. Shu bois, ularning fikricha, moliya bo'lmasa, savdo ham amalga oshmaydi, savdoga oid moliyalashtirish uni qo'llab-quvvatlashning muhim omili sanaladi.

Asosiy e'tibor savdoni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari va eksportni moliyalashtirish, uni sug'urtalash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan xalqaro tajribalar bilan tanishtirish, shuning-dek, O'zbekistonda savdoga oid moliyalashtirish jarayonini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda mamlakatimizda eksportni qo'llab-quvvatlashning amaldagi tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Yurtimizda ilk bor tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda tijorat banklari tomonidan eksportni moliyalashtirish mexanizmi joriy etildi. Mahalliy eksportni qo'llab-quvvatlashning ushbu yo'nalishi O'zbekiston uchun yangi bo'lib, u xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining texnik-maslahatlashuv ko'magini jalb etishni taqozo qiladi, pirovardida savdoni moliyalashtirish tizimini yaratishga olib keladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, eksportni rag'batlantirishning amaldagi vositasi bu korxonalarni savdoni moliyalashtirish shaklida qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan 114 ta davlat tadbirkorlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovga ko'ra, bu jarayon eksport-importni moliyalashtirish hajmini 25 foiz, ishlab chiqarish ko'lamini o'rtacha 30 foiz, aholi

bandligini 25 foiz ko'paytirish, biznesni esa 19 foiz rivojlantirishga olib keladi.

Xalqaro savdo markazi vakili Yan Sayersning qayd etishicha, 2017 yilgi savdo operatsiyalarining 27 foizi an'anaviy akkreditiv pul o'tkazmalari orqali amalga oshirilgan. Bugun esa ushbu usul o'rnini onlayn savdo maydonchalari, blokcheyn kabi yetkazib berishni "zanjirli moliyalashtirish texnologiyasi" egallamoqda³⁸.

Ma'lumotlarga ko'ra, mustaqil taraqqiyot davrida mamlakatimiz eksport tarkibining tahlili bu borada birmuncha siljishlar ro'y berganini ko'rsatgan. Masalan, 1990 yilda eksportning 60 foizi paxta tolasidan iborat bo'lgan, 2016 yilda bu ko'rsatkich deyarli 12 baravar qisqargan. Aksincha, xizmatlarning ulushi 1 foizdan 25,5 foizgacha, ya'ni 25 baravardan ko'proq o'sgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari – 4 foizdan 8,5 foizga, kimyoviy mahsulotlar va buyumlar – 2 foizdan 6,7 foizga oshgan. Boshqa asosiy eksport yo'nalishlari bo'yicha ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. O'tgan yil davomida eksport faoliyatiga 877 ta yangi korxonalar jalb qilinib, mahalliy mahsulotlarni chetga sotish uchun 60 ta yangi bozor ochilgan³⁹.

Tijorat banklari tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlashga bevosita ta'sir qiluvchi kreditlar taqdim etilayotgani, pul va valyuta bozorlaridagi operatsiyalar, forfeyting, faktoring, lizing, savdoni moliyalashtirish, bank kafolatlari, hujjatlashtirish operatsiyalari, akkreditivlar, inkasso, shartnomalar ijrosi, eksportyorlarni to'g'ridan-to'g'ri kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish kabi xizmat turlari ko'rsatilayotgani qayd etildi.

Bundan tashqari, mahalliy eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Eng muhimi, hozirda bu yo'nalishdagi choralar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Keyingi paytda davlatimiz rahbari va hukumat tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar asosida yangi meva-sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarini eksport qilishdan

³⁸ <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/57287-savdoni-moliyalashtirish--dolzarb-masala>

³⁹ <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/47459-eksport-salohiyati-amaliyot-tahlil-taklif>

tushadigan valyuta tushumining majburiy sotuv miqdori 50 foizdan 25 foizgacha tushirildi, to'qimachilik tarmog'ining bir qator nooziq-ovqat iste'mol tovarlari eksportidan olingan xorijiy valyutadagi tushumni vakolatli banklarga majburiy sotish 2017 yil 1 yanvardan boshlab bekor qilindi, tovarlar va xizmatlarni eksportga sotishdan olingan xorijiy valyutadagi tushumning vakolatli banklarga majburiy sotilishi kerak bo'lgan qismi 50 foizdan 25 foizga kamaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar va xizmatlarni eksportga sotishdan olingan xorijiy valyutadagi tushumni sotishdan ozod etildilar. Shuningdek, elektrotexnika sanoati korxonalarini tovarlar va xizmatlarni eksportga sotishdan olingan xorijiy valyutadagi tushumning vakolatli banklarga majburiy sotilishi kerak bo'lgan summani asosiy qarzni va valyuta kreditlari bo'yicha foizlarni to'lash, shuningdek elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallar xarid qilish bo'yicha valyuta xarajatlari summasiga kamaytirishlari belgilab qo'yildi.

Ma'lumki, mamlakatimizda an'anaviy tarzda vaqti-vaqti bilan qabul qilinib hayotga tatbiq etilayotgan mahalliyashtirish dasturlaridan ko'zlangan asosiy maqsad import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga, qolaversa ularni eksport qilishga qaratilgan. Boz ustiga ushbu dasturga kirgan korxonalarga bir qator imtiyozlar ham taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi zarur shartlardan biri hisoblanadi. Birgina 2016 yilda mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi 24,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Bunda tashqi savdo balansining ijobiy saldosini 453,6 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi⁴⁰.

Ta'kidlash joizki, 2017 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari mamlakatning eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

⁴⁰Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari//Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2017. – №1. – 16-b.

2017 yil 25 maydagi PF-5057-sonli «Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta'minlashni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, xo'jalik sub'ektlariga 2017 yil 1 yanvardan boshlab, o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni xorijiy valyutada oldindan to'lovsiz, akkreditiv ochmasdan, bank kafolatini rasmiylashtirmay hamda eksport shartnomalarini siyosiy va tijorat xavflaridan sug'urta polisisiz eksport qilish huquqi berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni bilan so'mni joriy valyuta operatsiyalari bo'yicha xorijiy valyutalarga erkin ayirboshlashning ta'minlanishi, shubhasiz, rezidentlarning tashqi savdo operatsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4-jadval

ATB «Asakabank» tomonidan mijozlarning eksport shartnomalari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmi o'zgarishi⁴¹

(mln. AQSh doll)

| | Yillar | | | | | | |
|--|--------|------|-------|-------|------|-------|-------|
| | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 |
| Hujjatlashtirilgan akkreditivlar hajmi | 39,46 | 5,30 | 29,27 | 30,12 | 9,91 | 18,03 | 10,88 |
| Bir akkreditivga to'g'ri keladigan summa | 2,5 | 1,0 | 5,3 | 3,8 | 0,7 | 0,5 | 0,3 |

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, 2013-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi miqdorining kamayish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, ushbu holat salbiy baholanadi. Mazkur tendensiya tahlil qilingan davr mobaynida eksport hamda import hajmining ham qisqarganligi bilan izohlanadi.

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, ATB «Asakabank» tomonidan mijozlarning

⁴¹ F.X.Axmedov O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatishini takomillashtirish: i.f.b. PhD avtoreferati. – BMA, Toshkent. 2018. – 49 b.

eksport shartnomalari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning jami summasi hamda bir akkreditivga to'g'ri keladigan summa 2016 yilda 2010 yilga nisbatan keskin kamaygan. Bu esa, ATB «Asakabank» ning tashqi savdoga xizmat ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.


Shuningdek, 2010-2016 yillarda ATB «Asakabank» tomonidan mijozlarning eksport shartnomalari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlar jami summasi va bir akkreditivga to'g'ri keladigan summaning nobarqarorligi kuzatilgan.

Masalan, 2011 yilda ATB «Asakabank» tomonidan eksport bo'yicha ochilgan jami hujjatlashtirilgan akkreditivlar summasi 5,30 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012 yil yakuniga kelib, 29,27 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi yoki 2013 yilda eksport shartnomalari bo'yicha ochilgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarning jami summasi 30,12 mln. AQSh dollarini tashkil etgan holda 2014 yilda ushbu summa 9,91 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

Bu esa, hujjatlashtirilgan akkreditivlar orqali ko'rsatiladigan to'lov xizmatini takomillashtirish nuqtai-nazaridan maqsadga muvofiq emas.

ATB «Asakabank» yillar davomida barcha ko'rsatkichlarda ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Xalqaro amaliyotda ham respublikamizdagi boshqa tijorat banklari qatori yuksak natijalarga erishayotganligini tahliliy ko'rsatkichlarda sezish mumkin. Umuman olganda banklar tashqi savdo sohasida xizmat ko'rsatishi bugungi kunda jahon standartlariga tenglashmoqda.

Quyidagi 10-rasmdan ko'rinadiki, 2012-2014 yillarda «Asaka» ATBning tashqi savdoga xizmat ko'rsatishdan olgan sof daromadlari miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, uning tashqi savdoga xizmat ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. 2015 yilda «Asaka» ATBning tashqi savdoga xizmat ko'rsatishdan olgan sof daromadlari miqdori 2014 yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan, ammo 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan.



10-rasm. Aksiyadorlik-tijorat «Asaka» ATBning tashqi savdoga xizmat ko'rsatishdan olgan sof daromadlari miqdori⁴², mln. so'm

Tijorat banklari kredit amaliyotlarini tahlil qilishda ajratilgan kreditlarning qaysi mijozlarga va qaysi sohaga berilishini xam ko'rib chiqishimiz lozim.

Bundan tashqari ushbu paragrafda tijorat banklarini kreditlash amaliyotiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar bilan bog'lanishlarini ekonometrik tahlil usullari orqali yoritishga harakat qilamiz.

Demak "Asakabank" ATB faoliyatini oxirgi 5 yilligini shartli ravishda o'rganinish natijasiga ko'ra yuqorida keltirilgan nazariyaga zid holatni ko'rishimiz mumkin. Buning sababi sifatida quyidagilarni fikrimizcha ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchi, tijorat banklari yuqorida aytilganidek kreditga bo'lgan talabni hali xam to'liq qondira olmaganligi sababli kreditlar foizi oshsada kredit talabi kamaymagan

Ikkichidan, depozitlarga to'lanadigan foizlarni oxirgi yillarda pasaymaganligi hamda banklarning resurs bazasi yetarli darajadamasligi, buning natijasida banklar kredit foizini oshiradilar.

Ohirgi yillarda barcha tijorat banklarini kreditlarining yillik o'rtacha foiz stavkalari to'g'risidagi ma'lumotga ko'ra yillik o'rtacha foiz stavkalari oxirgi

⁴² F.X.Axmedov O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatishini takomillashtirish: i.f.b. PhD avtoreferati. – BMA, Toshkent. 2018. – 49 b.

yillarda pasaygan. Buning sababi mamalakatimizning ba'zi tijorat banklari kreditlash amaliyotida shunda holatni kuzatishimiz mumkinki, unga ko'ra kredit ajratish jarayonida mijoz bilan kredit shartnomaga past foizni ko'rsatgan holda shartnomaga yana shunday bandlar qo'shiladiki ularda mijoz "kreditga xizmat ko'rsatish" gani uchun qo'shimcha haq to'laydi. Bu "haq" xam kredit foizi singari kredit qoldig'iga asosan hisoblanadi. Masalan kredit shartnomasida kredit foizi 12 foiz qilib belgilanadi. Mijozga kredit 24 foiz deb tushuntiriladi. Qo'shimcha bandlarda "kreditga xizmat ko'rsatish" uchun yana oyiga 1 foiz miqdorida haq to'lash ko'rsatiladi va yillik 12 foiz bo'ladi. Demak jami kredit foizi 24 foizga yetadi.

Bank kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'ining oshishi iqtisodiyotning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish darajasini oshayotganligidan dalolat beradi. Bu jarayon, pirovard natijada, iqtisodiy o'sish uchun qulay zamin hozirlaydi. Shunday ekan kreditlash amaliyotining tijorat banklari faoliyatida tutgan o'rnini baholashda kredit qo'yilmalarining YaIMdagi xamda tijorat banklarining aktivlaridagi salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda.

Kreditlash bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, Bankning kreditlash siyosati xalqaro tajribaga tayangan holda qarzdorliklarni diversifikatsiya qilish orqali xatarlilik darajasini kamaytirish hamda bank daromadlilik darajasini oshirish bilan uning raqobatbardoshlik holatini mustahkamlashga qaratilgan. Bankning kreditlash bozoridagi ustuvor yo'nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat. "Asakabank" ATB ham bu borada mamlakatimiz banklari orasida o'zining munosib o'rniga ega.

Shu bilan birga tijorat banklari jumladan, "Asakabank" ATB so'ngi 5 yillik ma'lumotlariga qaraganda bankning kreditlash bilan bog'liq muammolarini ko'rishimiz mumkin. Bunda banklarimiz imkon qadar kreditlashni ham miqdor ham sifat jihatidan oshirib borishga harakat qilsada, haligacha banklarimizning bank kreditlariga bo'lgan talabni to'liq qondira olmaganini ko'rishimiz mumkin.

III-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINING TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

3.1. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotidagi mavjud muammolar

Tijorat banklari o‘zlarining kredit operatsiyalarini amalga oshirishga doir bir qator ma’lumotlar asosida yuqoridagi boblarda o‘tkazilgan tahlillar natijasida shakllantirilgan ba’zi muammolarni keltirib o‘tamiz.

Birinchi, avvalo mamlakatimiz Prezidentining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan davlat dasturini amalga oshirilishi uchun jami 37 687.8 mlrd. so‘m va 8 349.3 mln. AQSh dollari sarflanishi lozim. Shundan mamlakatimiz tijorat banklari o‘zlarining 16 941.2 mlrd.so‘m (yoki jami milliy valyutada sarflanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 44.9 foizi) bilan qatnashishlari belgilab qo‘yilgan⁴³, bu esa hozirda barcha tijorat banklari jami kredit portfelining (2017 yil 1 yanvar holatiga 53 379 mlrd. so‘m) qariyb 32 foizini tashkil qiladi⁴⁴.

Bundan tashqari tijorat banklarining o‘z oldiga qo‘ygan rejaları bo‘yicha xam jami kredit portfeli oshirib borilishi belgilab qo‘yilgan.

Bu esa mamlakatimiz banklari juda katta miqdorda resurs topishi lozimligini anglatadi.

Respublikamiz tijorat banklari kreditlash amaliyoti muammolarini o‘rganish maqsadida 2017 yilning yanvar-mart oylarida “Asakabank” ATB Surxondaryo viloyati filialining 55 nafar xodimlari bilan birgalikda Surxondaryo viloyatining bir qator tumanlarida so‘rovnomalar o‘tkazildi. So‘rovnoma viloyatning 29 667 nafar fuqarolari orasida o‘tkazildi. Uning natijalariga ko‘ra tadbirkorlik qilish

⁴³“O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil.

⁴⁴Markaziy bank ma’lumotlari.

maqsadida bank kreditlaridan foydalanish istagini bildirgan fuqarolar 5 933 nafar yoki, so‘rovnoma o‘tkazilgan jami aholini 20 foizi. Lekin ushbu bank kreditini olish istagini bildirgan mijozlarning faqatgina 1 224 nafariga yoki, jami kredit olish istagini bildirgan mijozlarning 20.6 foiziga “Asakabank” ATB Termiz filiali tomonidan umumiy summasi 9 437 mln. so‘m miqdorida mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatilgan.

5-jadval

Surxondaryo viloyatida 2017 yil yanvar-mart oylarida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari⁴⁵

| № | Ko‘rsatkichlar | Miqdori |
|---|--|---------|
| 1 | O‘rganilgan aholi (dona) | 29 667 |
| 2 | Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun kredit olish istagini bildirganlar (dona) | 5 933 |
| 3 | O‘rganilgan aholiga nisbatan (foizda) | 20 |
| 4 | Ajratilgan kredit (dona) | 1 224 |
| 5 | Ajratilgan kredit o‘rganilgan aholiga nisbatan (foizda) | 4.1 |
| 6 | Ajratilgan kredit tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun kredit olish istagini bildirganlar (foizda) | 20.6 |
| 7 | Ajratilgan kredit (mln.so‘m) | 9 437 |

Demak, bugungi kunda tijorat banklarida jami kreditga bo‘lgan talabni qondirish imkoniyatiga yo‘q, chunki hozirda tijorat banklari o‘z mijozlari talabidan tashqari davlat doirasidagi dasturlarni moliyalashtirishda xam faol qatnashishlari lozim.

Tijorat banklari kredit amaliyotini takomillashtirish doirasida banklar kreditlariga bo‘lgan talabni imkon boricha to‘liq qondirish maqsadida Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash uchun yangi manbalarni qidirish, bunda depozitlarga to‘lanadigan foizlarni oshirish va shu orqali kredit ajratish salohiyati ortishi, buning natijasida jamiyatning banklarga bo‘lgan ishonchi ortib, o‘zlarining bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklarida qo‘yish jarayoni tezlashadi.

⁴⁵Manba: “Asakabank” ATB Surxondaryo viloyat filiali xodimlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma.

Ikkinchidan, hozirda tijorat banklari kreditlash vaqtida kredit ta'minoti sifatida qabul qilinadigan garov mulkini mavjud qonunchilikka asosan kredit muddatiga teng muddatga sug'urta qilinishi lozim.

Bunda kredit oluvchi garov mulkining bahosiga nisbatan xar yiliga kamida, agar transport vositasi bo'lsa 1.8 foiz, ko'chmas mulklar garovi taqdim qilinganda uchun 0,13 foiz miqdorida, ipoteka kreditlari ajratilishida garov sifatida qabul qilingan turar joy binolari uchun 0.12 foiz miqdorida⁴⁶ to'lovlar to'lanadi. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini keng ko'lamda imtiyozli mikrokreditlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 martdagi "Dehqon xo'jaliklari va aholini tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvga chidamli eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 119 sonli qaroriga asosan kredit qaytmasligini xavfini sug'urtalashda kredit summasining 1 foiz miqdorida mablag'lar to'lanadi⁴⁷.

Banklar kredit ajratish jarayonida mijozlarning kredit ta'minoti sifatida taqdim qilgan garov mulkini sug'urtalashda mijozlar tomonidan sug'urta korxonalariga to'lanadigan summani kamaytirish orqali aholi va tadbirkorlik sub'ektlari mablag'larni o'zlarida qoldirish mumkin. Buning natijasida bank mijozlarining qo'shimcha mablag'larga bo'lgan ehtiyojlari kamayadi va bu to'g'ridan - to'g'ri kredit talabini kamayishiga imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, Respublikamiz tijorat banklari aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga qo'llab-quvvatlab, ajratayotgan kreditlar xususan, imtiyozli kreditlari hajmi juda katta sur'atlarda ortib borishiga qaramasdan, ushbu jarayonda faol qatnashayotgan tijorat banklarini hukumat tomonidan imtiyozlar berish mexanizmi joriy qilinmagan. Fikrimizcha ushbu imtiyozlarni joriy qilinishi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilibgina qolmasdan, o'zlarining

⁴⁶26.06.2015 yildagi O'zbekiston Respublika Moliya vazirligining № BY 16-02-32-20/299 –sonli ko'rsatmasiga asosan.

⁴⁷O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 martdagi "Dehqon xo'jaliklari va aholini tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvga chidamli eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi № 119 sonli qaroringa 7-sonli ilovasiga muvofiq.

imtiyozli mikrokreditlar ajratish faoliyatlari bilan yanada ko'proq shug'ullanishlariga olib keladi.

To'rtinchidan, muammoli kreditlar. Ushbu kreditlarni iloji boricha kamaytirish uchun avvalo kreditlarni skoring qilishni mamlakatimiz barcha banklarida (hozirda ba'zi banklar foydalanadi) joriy qilish, bunda faqatgina mijoz faktorini xisobga olmasdan inson omolini qo'shishimiz zarur. Bundan tashqari hozirda "garov reestri"ga faqatgina garovlarni registratsiya qilmasdan kafilliklarni ham qo'shish lozim. Fikrimizcha ushbu orqali muammoli kreditlarni kamaytirish mumkin.

Beshinchidan, bugungi kunda mamlakatimizning 9 ta yirik tijorat banklari tomonidan aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish doirasida kreditlar ajratilmoqda, lekin ajratilgan kreditning 74,4 foizi yoki 1,25 trln. so'm qismi chorvachilik (qoramol yetishtirish) ga yo'naltirilgan bo'lishiga qaramasdan go'sht va sut mahsulotlari arzonlash o'rniga qimmatlamoqda. Chunki mamlakatimiz xududida qoramol soni ko'paymadi, faqatgina aholi orasida oldi sotdi bo'lib ketmoqda. Ushbu jarayonda yaxshi natijaga erishish uchun tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari faqatgina bir tashkilotga yo'naltirilib (agrofirma) ushbu tashkilot yaqin mamlakatlardan zotdor qoramollarni olib kelib aholiga sotishni yo'lga qo'yish zarur.

Oltinchidan, muammoli kreditlarni garovi orqali so'ndirish. Agar kredit muammoli xolatga kredit 90 kun davomida to'lanmasi ish sudga oshiriladi. Mavjud qonunchilikka asosan da'vo arizasi berilganidan keyin sudlar ishni 1 oy muddatda ko'rib chiqadi (4 oy bo'ldi). Sud qarori bilan undiruv garovga qaratilganidan keyin (ba'zan ushbu qaror 25 kundan keyin kuchga kiradi chunki oppelyatsiya uchun muddat qoldiriladi) ijro organlariga yuboriladi. Undan keyin 1 oy muddatda ijro vaqasi chiqariladi. Ushbu xujjat chiqqanidan keyin ham ijro organlari xodimlarining ijro xarakterlarini amalga oshirish uchun vaqt topishi lozim (chunki ular avvalo byudjet qarzdorligi bilan shug'ullanadilar). Garov mulki tortib olinganidan keyin esa uni sotish va hakozi. Shu tariqa kredit 6-7 oy davomida

muammoligicha qolish xolatlari amaliyotda qo‘p uchramoqda. Ushbu muammoni yechimi sifatida kredit muammoli kreditga aylanganda bank yuristlariga vakolat barish kerakki garov mulkini shartnoma shartlari buzilganligi munosabati bilan olib qo‘yishga.

3.2. Banklarning kreditlash amaliyotining takomillashtirish masalalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning aylanma mablag‘larni to‘ldirish imkoniyatini oshirish, monetizatsiya koeffisientining darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning oldingi boblarida amalga oshirilgan tahlil natijalari respublikamiz tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasida qator muammolarni mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot jarayonida mavjud muammolar yuzasidan asosiy takliflarni oldingi paragrafda muammolar bilan birga keltirishga xarakat qildik. Ushbu paragrafda esa kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun yuqoridagilardan tashqari muammolarga to‘xtalamiz.

Shunday muammolardan biri – mijozlar tomonidan ko‘pincha o‘zlarining kredit to‘loviga layoqatlilik darajasini yuqori qilib ko‘rsatish maqsadida hisobotlardagi ko‘rsatkichlarni asossiz o‘zgartirib taqdim etish hollari ham uchramoqda. Kompyuter bank xodimlari ishini ancha yengillashtirdi. Lekin kompyuter inson mehnatining mahsuli ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki kompyuterdagi dasturlardan ongli ravishda foydalanilgan taqdirdagina ish unumli bo‘ladi.

Bank xodimlari korxonaning balans hisobotlari to‘g‘ri tuzilganligini aniqlaganlaridan so‘nggina kompyuter dasturidan foydalanishlari zarur. Lekin bank xodimlari balans hisobotlaridagi ko‘rsatkichlarning haqqoniyligini, aktiv va passiv qismdagi qiymatlarning o‘zaro bog‘lanish asoslarini tekshirmay turib, kompyuter dasturlari orqali korxonaning to‘lov qobiliyatini, kredit to‘loviga

layoqatliligini aniqlaydilar. Natijada, korxonada tomonidan ko'rsatkichlari haqqoniy bo'lmagan hisobotlarning taqdim etilishi mijozlarni kredit to'loviga layoqatlilikning asossiz ravishda birinchi yoki ikkinchi sinf toifasiga kiritilishiga olib kelmoqda. Bank xodimi esa, kompyuter dasturida aniqlangan natijalar asosida kredit qo'mitasiga ijobiy xulosa beradi. Kredit qo'mitasi ham bank kredit nozirining mazkur xulosasiga tayangan holda kredit berish yuzasidan ijobiy qaror qabul qiladi. Natijada, bank krediti aslida moliyaviy ahvoli qoniqarsiz yoki nochor bo'lgan xo'jalik sub'ektiga beriladi. Demak, berilayotgan kredit mijozga rasmiylashtirilayotgan davridayoq muammoli kredit mazmuniga ega bo'ladi.

Kreditlash amaliyotini rivojlanishiga ta'sir qiluvchi yana bir sabab, tijorat banklari kredit bo'linmalari xodimlari o'rtasida xizmat vazifalari taqsimotini to'g'ri tashkil etilmaganligidir. Bank muassasalari banklararo raqobatda nafaqat o'z o'rnini saqlab qolish, balki yetakchi banklar qatoridan joy olish maqsadida, shuningdek, mijozlarga deyarli kun bo'yi ularga xizmat qilish tartibini joriy etmoqdalar. Natijada, kun bo'yi mijoz topshirig'i bilan band bo'lgan kredit bo'linmasi xodimlarini mijozlarning xo'jalik – moliyaviy faoliyatini tahlil etish bilan shug'ullanishga vaqt ajratishi qiyin kechmoqda. Bu esa, bank uchun mijozning xo'jalik – moliyaviy faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lmaslik holatini keltirib chiqarmoqda. Bankning mijozni xo'jalik – moliyaviy faoliyatida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lmay turib, bank krediti hisobiga ishlab chiqargan yoki ishlab chiqarmoqchi bo'lgan mahsulotiga talab darajasini o'rganib chiqmasdan, mahsulotni ishlab chiqarish quvvatini tahlil etmay turib kredit berishi, albatta, muammoli kreditlar vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, respublikamizning tijorat banklarida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda asosan 5-6 moliyaviy ko'rsatkichdan foydalanilmoqda. Fikrimizcha, bu yetarli emas va mazkur ko'rsatkichlar mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash to'g'risida to'liq xulosalarni shakllantirish imkonini bermaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, respublikamiz tijorat banklarining faoliyatida, mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda, biz taklif etayotgan moliyaviy ko'rsatkichlar tizimidan to'liq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina korxonalarining kredit to'loviga layoqatliligi xususidagi to'g'ri va to'liq xulosalarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, mazkur ko'rsatkichlar har qanday tarmoqqa mansub bo'lgan korxonalarining faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, ularning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda, hisobga olish imkonini beradi. Masalan, savdo tashkilotlarining kredit to'loviga layoqatliligini baholashda muxtorlik ko'rsatkichini qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki savdo korxonalarining ko'pchiligida kapitalning passivlar hajmidagi salmog'i juda kichik. Lekin bu holat mazkur savdo korxonalarini to'lovga layoqatsiz ekanligini bildirmaydi, balki savdo korxonalarini faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, savdo tashkilotlarining kredit to'loviga layoqatliligini baholashda aylanish ko'rsatkichlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda, asosan, debitor qarzdorlikning aylanish ko'rsatkichi va tovar zaxiralarining aylanish ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Bundan tashqari, rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashda ularning pul oqimini baholash usulidan keng ko'lamda foydalaniladi. Buning sababi shundaki, mazkur mamlakatlarda moliya bozorlari yaxshi rivojlangan, barqaror iqtisodiy o'sish va maqroiqtisodiy barqarorlik ta'minlangan. Bunday sharoitda moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan korxonalarda pul oqimi ham barqaror bo'ladi. Kredit esa, pul oqimi hisobidan qaytariladi. Shuning uchun ham, mazkur mamlakatlarning bank amaliyotida garov ta'minoti asosida kreditlash amaliyoti rivojlanmagan.

Bank amaliyotimizda ham mijozning moliyaviy holatini tahlil qilishda pul oqimini albatta tahlil qilish kerak. Bu esa, mijozni kredit to'loviga layoqatliligini o'rganishda to'liqroq baho berish imkonini beradi.

Xo'jalik sub'ektlarini kreditlash jarayonini tashkil etishda mijozning biznes rejasini to'g'ri tuzilishi va uning tahlili ham muhim ahamiyatga egadir. Banklar

uchun kreditni rasmiylashtirish jarayonida ham, kredit mablag‘idan foydalanish jarayonida ham asosiy e‘tiborni qarzdor tomonidan tuzilgan biznes rejani tahlil qilish va tahlilni davom ettirishga qaratishlari zarur. Lekin biznes rejalariga kreditor tomonidan ham, qarz oluvchi tomonidan ham kredit amaliyoti uchun talab etiladigan rasmiy bir hujjatdek yondashiladi. Holbuki, aynan biznes reja mijozning kredit mablag‘laridan foydalanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim bir hujjatdir. Lekin banklarda biznes rejalar kreditni rasmiylashtirish davridagina o‘rganib chiqiladi. O‘rganilganda ham biznes rejadagi oxirgi natijaning ijobiy ekanligi, ya‘ni mazkur faoliyat natijasida olinadigan foyda qismigina banklarni qiziqtiradi. Vaholanki, kredit olishni maqsad qilib olgan mijoz albatta faoliyat natijasida olinadigan foyda miqdorini shunday darajaga yetkazib hisoblaydiki, natijada, bank uchun qarzdor tomonidan kreditni qaytarish xavfi yo‘qday tuyiladi. Shuning uchun ham biznes rejalar mijozlar tomonidan deyarli bir biriga o‘xshash holatda tuzilmoqda.

Bank va mijoz o‘rtasida tuzilayotgan kredit shartnomalarini huquqiy va iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri rasmiylashtirilmasligi va mijozlarning o‘z huquqlarini yaxshi bilmasliklari natijasida tomonlardan birining, masalan, kichik biznes, dehqon-fermer va xususiy tadbirkorlar huquqi poymol etilgan holatlar aks etgan shartnomalar ham uchramoqda.

Bank-mijoz kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar va kreditlash qoidalarida tijorat banklari tomonidan kreditdan foydalanishning butun muddati davomida doimiy monitoringni amalga oshirib borilishi, ya‘ni qarzdorning moliyaviy xo‘jalik faoliyati uning tuzilgan shartnomalarga muvofiq, mahsulot yetkazib berish majburiyatlarini bajarishi, ishlab chiqarish hajmlari, noishlab chiqarish xarajatlari va yo‘qotishlar, muomala chiqimlari, foyda, o‘z aylanma mablag‘larining mavjudlik dinamikasi, tovar-moddiy zaxiralarining ahvoli, aylanma mablag‘larning aylanishi biznes reja ko‘rsatkichlari bilan taqqoslangan holda tahlil etib borilishi belgilangan bo‘lsada, banklar tomonidan bu talablar deyarli bajarilmay, muammoli kreditlar yuzaga kelish xavfining oldini

olish imkoniyatiga salbiy ta'sir etmoqda.

Hozirgi vaqtda garov munosabatlari ham kreditlash jarayonidagi asosiy muammolardan biri sifatida o'z yechimini kutmoqda. Garov munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni va Fuqarolik kodeksi normalari (264-289 modda) bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 271 moddasiga muvofiq garov shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart, chunki busiz u haqiqiy hisoblanmaydi⁴⁸.

Garov shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 267-271 moddalariga muvofiq, quyidagi shartlarga ega:

- garov predmeti va uning moliyaviy bahosi;
- kredit shartnomasida belgilangan majburiyatning muddati;
- hajmi;
- mazmuni;
- garovning joylashish manzili va boshqalar.

Garov ob'ekti bo'lib, har qanday mulk bo'lishi mumkin: bino va inshootlar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya) va boshq.

Kreditning ta'minlanganligi deganda, beriladigan kreditning qaytarilishi aniq moddiy qimmatliklar, pul hujjatlari yoki pul mablag'larini olishga bo'lgan huquq bilan kafolatlangan bo'lishi tushuniladi. Kreditni ta'minlanganligi aniq garov ob'ektini tegishli tartibda rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Lekin ayrim hollarda, masalan, yirik mijozlar kreditlanayotganda garov sifatida aniq shaklga ega bo'lgan ob'ekt emas, balki umumiy aktivlar olinishi mumkin.

Shunisi xarakterliki, garov ob'ektlari likvidlilik darajasiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi.

Xalqaro bank amaliyotida birinchi toifali garov ob'ektlari hisoblanagan ob'ektlarni respublikamiz banklari amaliyotida yetishmaslik hollari mavjud. Xalqaro bank amaliyotida yuqori likvidlilik darajasiga ega bo'lgan ob'ektlar

⁴⁸O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Toshkent, 2003 yil.

birinchi toifali garov ob'ektlari, deb ataladi va ularga quyidagilar kiritiladi:

- yer;
- hukumatning qimmatli qog'ozlari;
- Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar;
- korporatsiya(korxonalar)ning hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog'ozlari.

Respublikamizda ham hozirgi kunda xalqaro bank amaliyotidan kelib chiqib, kredit – garov munosabatlarini takomillashtirish borasida anchagina ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 martdagi PF-3047-sonli "Pul massasi o'sishini cheklash va moliya intizomiga rioya etish ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda kredit-garov munosabatlarini takomillashtirish yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Ushbu Farmonning 5-bandiga muvofiq, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'lari yetishmasligi oqibatida, kreditlar bo'yicha qarzlarni o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda, tijorat banklariga mijozlarning roziligiga ko'ra qarzlarni ularning likvidli mol-mulkiga qaratish yo'li bilan undirish huquqi berildi.

Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat mulki qo'mitasi, Adliya vazirligi va Oliy xo'jalik sudlari o'zaro hamkorlikda "Banklarning kreditlari bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvchini qarzdorlarning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi" ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiriq etildi. (2002 yilning 4 dekabrda Vazirlar Mahkamasining 422-sonli qarori bilan tasdiqlangan).

Ushbu tartibda qarzdor kredit bo'yicha o'z majburiyatini o'z vaqtida bajarmagan taqdirda hamda garovga qo'yilgan mol-mulk qiymati kreditor bankning talabini qoplash uchun yetarli bo'lmaganda, undiruvni qarzdorning garovdan bo'sh bo'lgan boshqa likvidli mol-mulkiga qaratish tartibi aniq va ravshan belgilab berilgan. Bunda likvidli mol-mulk sifatida qarzdorning tez

sotiladigan mol-mulki, shu jumladan, ijtimoiy infratuzulma ob'ektlari, transport vositalari, kompyuter va boshqa asbob-uskunalar e'tirof etiladi.

Shunga alohida e'tibor qaratish lozimki, kreditor bank o'z vaqtida qaytarilmagan kredit bo'yicha qarzni qarzdorning likvidli mol-mulk hisobidan undirish bo'yicha mo'ljali to'g'risida qarzdorga oldindan yozma ravishda xabar berishi lozim. Bunda qarzdor bildirishnomani olgandan so'ng 15 kun ichida kreditor bankka yozma javob berishi shart.

Agar qarzdor rozi bo'lmasa, kreditor bank kredit bo'yicha qarzni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'latish maqsadida da'vo bilan xo'jalik sudiga murojaat qilishi lozim. Shuningdek, mazkur tartibda qarzdorning likvidli mol-mulkinging ochiq savdosini tashkil etish, savdodan tushgan mablag'larni taqsimlash kabi boshqa masalalar ham ushbu tartibda aniq ko'rsatib berilgan.

Hozirgi kunda qaytarish muddati o'tgan kreditlarni undirish muammosi, va mijoz o'rtasida tuziladigan kredit shartnomasini takomillashtirish muammosi o'zining to'liq yechimini topgani yo'q.

Shartnomaviy munosabatlar birlamchi huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Shu sababli, kreditlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga erishish va to'lov intizomini mustahkamlash maqsadida, banklar va mijozlar o'rtasida tuziladigan kredit va garov shartnomalarida mijozlar tomonidan kreditlar o'z muddatlarida qaytarilmagan taqdirda, banklarga kreditlar evaziga garovga olingan mol-mulklarni to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni sudlarning aralashuvisiz tasarruf etishlarining belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kredit amaliyoti daromad olish maqsadida mablag'lar (yoki tovar)ni shartnoma asosida ma'lum muddatda ma'lum foizi bilan qaytarish sharti bilan pul (yoki tovar)ni olish va qaytarib berish bilan bog'liq munosabatlar.

Shunga mos ravishda tijorat banklari kreditlash tizimining huquqiy asoslari xam yaratilib, ushbu normativlar jahon tajribasini hisobga olgan holda, ularni mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari o'rganib, hozirda jahon andozalariga deyarli mos tushadigan shaklga keltirilgan.

Ularga ko'ra yangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga faoliyatini amalga oshirish uchun olingan tovarlarni garov sifatida hisobga olgan holda eng kam ish haqining 20 barobarigacha miqdorda mikro kreditlar ajratish;

Yangi davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining 60 barobarigacha miqdorda mikro kreditlashga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ta'minot turlari bilan bir qatorda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasida ko'rsatilgan vakolatlar doirasida kafilligi asosida ajratishni kengaytirish.

Bundan tashqari mamlakatimiz rahbarining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli farmoni asosida barcha sohalarda keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda.

Bank kreditlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'ining oshishi iqtisodiyotning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish darajasini oshayotganligidan dalolat beradi. Bu jarayon, pirovard natijada, iqtisodiy o'sish

uchun qulay zamin hozirlaydi. Shunday ekan kreditlash amaliyotining tijorat banklari faoliyatida tutgan o'rnini baholashda kredit qo'yilmalarining YaIMdagi xamda tijorat banklarining aktivlaridagi salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda.

Kreditlash bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bankning kreditlash siyosati xalqaro tajribaga tayangan holda qarzdorliklarni diversifikatsiya qilish orqali xatarlilik darajasini kamaytirish hamda bank daromadlilik darajasini oshirish bilan uning raqobatbardoshlik holatini mustahkamlashga qaratilgan. Bankning kreditlash bozoridagi ustuvor yo'nalishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishdan iborat.

Mamlakatimiz yirik tijorat banklari tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb qilish dasturi doirasida tijorat banklari tomonidan aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida qariyb 1.7 trln. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning barcha sohalarini hamda aholini kreditlash yildan-yilga miqdor va sifat jihatidan ortib borishiga qaramasdan banklarning kreditlash amaliyotida ba'zi muammolar mavjud. Jumladan:

Birinchiidan, tijorat banklari aholi va xo'jalik yurituvchi subektlarning kreditga bo'lgan talabini qondira olmayotganligi. Buning o'ziga xos sabablari mavjud. Avvalo banklarning talabni to'liq qondirishga resurs bazasi yetishmasligi bu esa o'z navbatida bankning depozit siyosatidan tortib kreditlarning orqali emissiya qilingan mablag'lar iqtisodiyotning o'zida (Ochiq bozor siyosatining yaxshi ishlamasligi) qolib ketishi. Bundan tashqari tijorat banklari o'zlarining depozit foiz stavkalarini (ayniqsa talab qilib olinguncha depozitlar) ko'tarishlari zarur.

Ikkinchiidan, muammoli kreditlar. Ushbu kreditlarni iloji boricha kamaytirish uchun avvalo kreditlarni skoring qilishni mamlakatimiz barcha banklarida (hozirda ba'zi banklar foydalanadi) joriy qilish, bunda faqatgina mijoz faktorini xisobga olmasdan inson omolini qo'shishimiz zarur. Bundan tashqari hozirda "garov

reestri”ga faqatgina garovlarni registratsiya qilmasdan kafilliklarni ham qo‘shish lozim. Fikrimizcha ushbu orqali muammoli kreditlarni kamaytirish mumkin.

Uchinchidan, bugungi kunda mamlaktimizning 9 ta yirik tijorat banklari tomonidan aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish doirasida kreditlar ajratilmoqda, lekin ajratilgan kreditning 74,4 foizi yoki 1,25 trln. so‘m qismi chorvachilik (qoramol yetishtirish) ga yo‘naltirilgan bo‘lishiga qaramasdan go‘sht va sut mahsulotlari arzonlash o‘rniga qimmatlamoqda. Chunki mamlakatimiz xududida koramol soni ko‘paymadi faqatgina aholi orasida oldi sotdi bo‘lib ketmoqda. Ushbu jarayonda yaxshi natijaga erishish uchun tijorat banklari tomonidan kredit mablag‘lari faqatgina bir tashkilotga yo‘naltirilib (agrofirma) ushbu tashkilot yaqin mamlakatlardan zotdor koramollarni olib kelib aholiga sotishni yo‘lga qo‘yish zarur.

To‘rtinchidan, kredit ta‘minoti sifatida taqdim kilinadigan garov mulkini sug‘urtalash narxlari. Ushbu sug‘urta foizlari 26.06.2015 yildagi O‘zbekiston Respublika Moliya vazirligining № BY 16-02-32-20/299 –sonli ko‘rsatmasiga asosan avtotransport vositalari uchun baholash summasining yiliga 1,8 foizini tashkil qiladi. Endi bir hisoblab chiqamiz. Agar mijoz 3 yilga 80 mln.so‘m kredit olish uchun 2 dona avtomobil garovga qo‘ysa (baholash summasi kamida 100 mln.so‘m) mijoz sug‘urta kompaniyasiga yiliga 1,8 mln.so‘mdan jami 5,4 mln.so‘m mablag‘ to‘laydi. Ushbu mablag‘ so‘ratayotgan kredit summasining 6,75 foizini tashkil qiladi.

Beshinchidan, muammoli kreditlarni garovi orqali so‘ndirish. Agar kredit muammoli xolatga kredit 90 kun davomida to‘lanmasi ish sudga oshiriladi. Mavjud qonunchilikka asosan da‘vo arizasi berilganidan keyin sudlar ishni 1 oy muddatda ko‘rib chiqadi (4 oy bo‘ldi). Sud qarori bilan undiruv garovga qaratilganidan keyin (ba‘zan ushbu qaror 25 kundan keyin kuchga kiradi chunki oppelyatsiya uchun muddat qoldiriladi) ijro organlariga yuboriladi. Undan keyin 1 oy muddatda ijro vaqasi chiqariladi. Ushbu xujjat chiqqanidan keyin ham ijro organlari xodimlarining ijro xarakatlarini amalga oshirish uchun vaqt topishi lozim

(chunki ular avvalo byudjet qarzdorligi bilan shug'ullanadilar). Garov mulki tortib olinganidan keyin esa uni sotish va xakozo. Shu tariqa kredit 6-7 oy davomida muammoligicha qolish xolatlari amaliyotda qo'p uchramoqda. Ushbu muammoni yechimi sifatida kredit muammoli kreditga aylanganda bank yuristlariga vakolat berish kerakki garov mulkini shartnoma shartlari buzilganligi munosabati bilan olib qo'yishga.

Fikrimizcha yuqoridagi tavsiyalar orqali mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash amaliyotini oz bo'lsada takomillashtirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni mamnuniyat bilan aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ko'plab dunyo mamlakatlari, hatto rivojlangan mamlakatlardan ham farqli ravishda tijorat banklarining kreditlash amaliyotlarini takomillashtirish masalasini davlat orqali qo'llab-quvvatlash tizimi rivojlangan bo'lib, bu kelajakda mamlakatiz iqtisodiyotida raqobatbardosh va har tomonlama jahon bank xizmatlari bozori talablariga mos keluvchi tijorat banklari tizimini rivojlantirishga muhim turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Sharq, 2018 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni. 1995 yil 21 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel.
4. “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 5 aprel, 2002, 360-II
5. O'zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida” gi Qonuni 2003 yil 30-avgust, 530- II-son.
6. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahriri. – T.: 29.10.2014.
7. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risidagi”gi Qonuni 1998 yil 30 aprel
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF- 5296-sonli Farmoni
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmonining 1-ilovasi “2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”
10. “To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi 4434-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 dekabrda “Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutani olib kirish va olib chiqib ketish tartibini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5276-sonli

Farmoni

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620-sonli Qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi “Tadbirkorlik sub’ektlari va keng aholi qatlamiga mikro kreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2844-sonli Qarori

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 fevraldagi “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2768-sonli Qarori

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi “Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob- kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2751-sonli Qarori

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikro kreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2746-sonli Qarori

17. “Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 31-dekabrda 288-sonli Qarori.

18. Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori 2007 yil 7 noyabr.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

19. Mirziyoev Sh.M “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b

20. Mirziyoev Sh.M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b

21. Mirziyoev Sh.M “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 48 b

22. Mirziyoev Sh.M “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b

23. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 bet

24. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘itangan Oliy Majlis palatalarining ko‘shma majlisidagi nutqi, Toshkent - «O‘zbekiston» - 2016

25. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. – T.: O‘zbekiston, 2010. 57-58-b.

26. Karimov I.A. “Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida”. T.: O‘zbekiston. 2011. 528 b.

III. Sohaga oid me’yoriy hujjatlar

27. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2017 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti.

28. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2016 yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2017 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari, www.cbu.uz

29. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 23 sentyabrdagi “Tijorat banklarida jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №26/16- sonli Qarori

30. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 12 avgustdagi “Tijorat banklariga jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasini sotib olishi uchun Markaziy bank tomonidan madad pullari berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi №19/12-sonli Qarori

31. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 10 iyundagi “Jismoniy shaxslarga bank plastik kartochkasi orqali overdraft krediti berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 12/4-sonli Qarori

32. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 17 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga ta‘minotsiz kreditlarni berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi № 13/1-sonli Qarori

33. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 17 apreldagi “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida”gi №343-B-sonli Qarori

34. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 8 apreldagi «Glob Uz Card» banklararo universal chakana to‘lov tizimi faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi № 7-A/4-sonli Qarori

35. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017 yil 8 apreldagi “Tijorat banklari tomonidan yangi ro‘yxatga olingan yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub’ektlariga mikrokreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom” №7/3-

sonli Qarori

36. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “O‘zbekiston Respublikasida banklar tomonidan pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qarori 26.05.2015 yil, 1518-2-son

37. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi Qarori, 2015 yil 26 avgust, 2711-son

38. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qarori, 2015 yil 8 oktabr, 2465-3-son

39. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Markaziy banki Boshqaruvi, Davlat soliq qo‘mitasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 11-bandiga qo‘shimcha kiritish haqida”gi Qarori, 2015 yil, 8-oktabr, 2342-4-son

40. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2005 yil 16 iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklari tomonidan yirik investisiya loyihalarini sindisiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomi

41. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida elektron to‘lovlar tizimi bo‘yicha hisob-kitoblar yuritish to‘g‘risida” Nizomi 2001 yil 8 fevraldagi 485-sonli;

42. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida"gi Nizomi №2465, 03.06.2013 y.;

IV. Asosiy adabiyotlar

43. Abdullayeva Sh.Z. “Bank ishi”, Darslik - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017 yil,

732 b.

44. Azizov U. va boshqalar “Bank ishi”, Darslik - B.M.: T.: “Fan va texnologiya”, 2016 yil, 639 b.

45. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. I nashri TMI, -T.: Iqtisod-Moliya», 2014. 241 b.

46. N.G‘.Karimov, R.X.Xojimatov. Investisiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. –T.: TDIU, 2011.

47. International money and finance, eighth edition, Michael Melvin and Stefan c. Norrbin, 2013 Elsevier Inc. All rights reserved.

48. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Moliya”, 2010.

49. Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.

50. Angelidi M.S., Karimov N.G. Investitsiyalarni loyihaviy moliyalashtirish tizimida sindikat asosida kreditlashtirish (Savollar va javoblar). - T.: “Iqtisodmoliya”, 2005.

51. Липсис И.В., Коссов В.В. “Инвестиционный проект ” М.1996 г

52. Банковское дело. Под ред. доктора экономических наук, профессора А.М.Тавасиева,. – М.: 2001. стр. 605.

53. Мертенс А.В. Инвестиции: курс лекций по современной финансовой теории. – Киев: Киевское инвестиционное агенство, 1997. 71 стр.

54. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. T.: “Moliya” nashriyoti. 2003. 26 bet.

55. The economics of money, Banking, and financial markets, Tenth Edition, Frederic S. Mishkin Columbia University, Copyright © 2013 by Frederic S. Mishkin. All rights reserved.

56. Банковское дело: учебник / О.И.Лаврушин, И.Д. Мамонова, Н.И. Валенсова (и др.) – 6-е изд., стер. –М.: КНОРУС, 2008. -768 с. 2 экз

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

57. Кисилев В.В. Управление банковским капиталом. -М.: Экономика, 1997. -256 с.
58. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investisiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. –Т.: Fan va texnologiya, 2007. -240 b.
59. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Т.: Moliya, 2003 yil. -332 bet.
60. Jo‘rayev A.S., Xo‘jamqulov D.Y., Mamatov B.S. Investitsiya loyihalari tahlili. Oliy o‘quv muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. - Т.: “Sharq”, 2003.
61. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tshkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. - Т.: “Iqtisodiyot”, 2009.
62. G‘ozibekov D.G‘., Sobirov O.Sh., Mo‘minov A.G., Quljonov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. - Т.: “Fan va texnologiya”, 2004.
63. Uzoqov A.T., Nosirov E.I., Saidov R.B., Sultonov M.A. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O‘quv qo‘llanma. - Т.: “Iqtisod-moliya”, 2006.
64. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. - Toshkent: Moliya, 2007. -312 b.
65. Mullajonov F. M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi.-Toshkent: 2001. -152 b.
66. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования. -М.: КноРус, 2006. -256 с.

VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

67. Xo‘jamqulov D., Arazmuhummedov S. Investisiya loyihalarini sindikatli kreditlashni rivojlantirish. // “Bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning samarali yo‘llari”ga bag‘ishlangan respublika miqyosidagi ilmiy-

amaliy konferensiya materiallari to‘plami / – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 524 b.

68. Asrayev U.M. Bank tizimi barqarorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati // “Bank tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirishning samarali yo‘llari”ga bag‘ishlangan respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami / – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 524 b.

69. Allaberganova N.O., Muxtorov M.M. Mamlakatimiz real sektor korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati tahlili. // Mustaqillik yillarida O‘zbekiston bank-moliya tizimining rivojlanishi. Ilmiy-amaliy anjuman maqolalari to‘plami (2017 yil 10 noyabr). – T.: TDIU, 2017. 424 b.

70. Qushbakov A.Sh., Yusupov J.G‘. O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida investitsiyalarning ahamiyati. // Mustaqillik yillarida O‘zbekiston bank-moliya tizimining rivojlanishi. Ilmiy-amaliy anjuman maqolalari to‘plami (2017 yil 10 noyabr). – T.: TDIU, 2017. 424 b.

71. Rustamova F., Shoislomova N. Mamlakat iqtisodiyotiga investitsion faollikni oshirishda tijorat banklarining o‘rni. // Banklarning moliyaviy barqarorligi va resurslari yetarliligini xalqaro me‘yorlar va standartlar talablari asosida baholash va boshqarish: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T.: —Iqtisod-Moliya, 2017. 612 b.

72. Azizova M.I. Tijorat banklarining investitsion jarayonlarni takomillashtirish yo‘nalishlari. // Banklarning moliyaviy barqarorligi va resurslari yetarliligini xalqaro me‘yorlar va standartlar talablari asosida baholash va boshqarish: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T.: —Iqtisod-Moliya, 2017. 612 b.

73. Bozor, pul va kredit. 2015-2018 yil sonlari

74. Bank axborotnomasi, gazetasi 2015-2018 yil sonlari

75. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasining statistika axborotnomasi

76. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2017 yil hisoboti

VII. Internet saytlar

1. <http://www.cbu.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki);
2. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasining hukumat portali);
3. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);
4. <http://www.asakabank.uz> (ATB “Asakabank” banki)